

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEK ADABIYOTINI O‘QITISH METODIKASIKAFEDRASI



Himoya qilishga ruxsat beraman
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani

v.b. _____ f.f.n. L.Raupova

“ ____ ” _____ 2019-yil

5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun

**Xolyorov Mirzabek Baxtiyor o‘g‘lining “Akademik litseylarda
mumtoz she’riy asarlarni sharhlab o‘rganish”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Taqrizchi:

BMI O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISHMETODIKASI

kafedrasi yig‘ilishining (qaror №10, 25.05.2019)

qarori bilan himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri _____ p.f.n.

TOSHKENT - 2019

M u n d a r i j a

KIRISH.....

I.BOB.Mumtoz she'riy asarlarni sharhlab o'rganishning nazariy asoslari

1.1. O'rta maxsus ta'limi dasturlarida mumtoz she'r namunalarining joriylanishi va bugungi holati haqida

1.2. "Adabiyot qoidalari" darsligida nazariy ma'lumotlar ifodasi.

1.3. O'zbek mumtoz adabiyotining asosi aruzshunoslikdir

II.BOB. Mumtoz adabiyot namunalarini sharhlab o'rgatish yo'llari

2.1. Mumtoz asarlarni sharhlab o'rgatish metodlari va tavsiyalar

2.2. Akademik litseylarda g'azallarni poetik xususiyatlarini o'rganish metodlari

2.3. Ahmad Yassaviy "Hikmatlar"ini innovatsion usullar yordamida sharhlab o'rgatish

III.BOB. Amaliyotga tadbiiq etilgan dars ishlanmalari va slaydlar

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Respublikamizda olib borilayotgan ta'lim islohotlari – “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Davlat tili haqida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni hayotga tadbiiq qilinishi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Jamiyatda ma'naviy sog'lom, mustaqil fikrlaydigan avlodni shakllantirishda badiiy adabiyotning roli muhim ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylanganidan ko'pchilik xabardor. Chindan ham, badiiy adabiyot ma'naviy hayotimizning ajralmas bir qismi bo'lish bilan birga har bir shaxs, jumladan litsey talabalari uchun ham ma'naviy yetuk insonlar bo'lib yetishishida hal qiluvchi rol o'ynaydi desak mubolag'a bo'lmas kerak. Shaxsning rivojlanishi-jamiyat rivoji demakdir. Shunday ekan jamiyat oldidagi eng asosiy vazifalardan biri sog'lom avlodni voyaga yetkazish. Bu muhim vazifani amalga oshirish birinchi navbatda o'qituvchiga bog'liq. Mustaqillikka erishilgandan keyin barcha sohalardagi kabi ta'lim tizimida ham jiddiy islohotlar amalga oshirildi, ta'limning sifatini yaxshilashga kirishildi. Ta'lim berishning yangi usullari joriy qilina boshlandi. Shulardan eng asosiysi litsey talabalariga yangi pedagogik texnologiya asosida dars berish masalasi. Akademik litseylarda ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchi va talabalarning qiziqishi, iqtidori, bilim darajasini inobatga olgan holda yakka tartibda va tabaqalashtirib o'qitishni ta'minlash, adabiyot ta'limi maqsad-vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston mustaqillikka erishuvi sharofati bilan barcha sohalarda, ayniqsa, ma'naviyatimiz tarixini, madaniy merosimizni har tomonlama ilmiy, haqqoniy o'rganishga keng imkoniyatlar yaratilishi tufayli o'tmishda madaniyatimiz rivojiga bevosita va bilvosita katta hissa qo'shgan, biz uchun noma'lum bo'lgan yoki inkor etib kelingan shaxslarning nomlari endigina har tomonlama o'rganilmoqda.¹ Adabiyot faqat pedagogik maqsadlarga xizmat qiluvchi fan bo'libgina qolmay, birinchi navbatda talabalarga bilim berishi, ya'ni ko'p asrli o'zbek adabiyoti tarixi va hozirgi adabiy jarayonning asosiy yo'nalishi – yetakchi yozuvchilar va ular ijodi bilan, shu yozuvchilar ijodida o'z ifodasini topgan xalq va mamlakat tarixi bilan tanishtirishi, adabiyotning fan

¹Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. - T.:Fan, 2010.

sifatidagi o‘ziga xos tomonlari va nazariy masalalari haqida tasavvur berishi kerak. Aniqroq aytganda, asosan akademik litseyi bitirgan talaba o‘zbek adabiyotining eng qadimgi davridan hozirgi davriga qadar bosib o‘tgan yo‘li haqida, atoqli yozuvchilarning hayoti va ijodi haqida muayyan bilimga ega bo‘lishlari va olgan ijobiy fazilatlarini mustaqil hayotlarida qo‘llashlari zarur.

Mavzuning dolzarbligi. Ko‘p asrlik tarixga ega madaniy va adabiy merosimizga munosabat istiqloq tufayli tubdan o‘zgardi. Xalqimiz tarixi, dini va adabiyoti, ma’naviy qadriyatiga e’tibor kuchayib, ularning mavqeyini tiklash, xalqqa asl holida yetkazish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu esa boshqa sohalar qatori adabiyotshunoslikda ham teran ilmiy izlanishlar olib borish, adabiy merosga yangicha nuqtayi nazardan yondashish zaruratini ko‘rsatdi. O‘tmishda yashab ijod etgan shoir vaadiblar merosini xolis o‘rganish va munosib baholash har qachongidan dolzarb vazifaga aylandi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq adabiyot ahliga har tomonlama yordam ko‘rsatish, ijod erkinligini ta’minlash, ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yoritib kelingan madaniy merosni tiklash, tom ma’noda tahlil va talqin etish borasida davlat siyosati darajasida samarali ishlarga e’tibor qaratdi. “Agar biz O‘zbekistonni dunyoga tarannum etmoqchi bo‘lsak, uning qadimiy tarixi vayorug‘ kelajagini ulug‘lamoqchi, uni avlodlar xotirasida abadiy saqlamoqchi bo‘lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarning ijodini chuqur o‘rganish, buyuk shoir, buyuk ijodkorlarni tayyorlashimiz kerak. Nega deganda, ulug‘adib Cho‘lpon aytganidek, “adabiyot yashasa – millat yashaydi”² “Aslida adabiyot o‘qitishning bosh yo‘nalishi ta’limning turli bosqichlarida o‘quvchilar ongiga badiiy asarning mo‘jizakor ta’sir kuchini amaliy jihatdan ta’minlashga qaratilgan. Maktabgacha tarbiya muassasalari, boshlang‘ich ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar ta’limidagi adabiy ta’limning uzviyligi va uzliksizligining natijasi o‘sib kelayotgan yosh qalbdagi go‘zalikka bo‘lgan ijobiy va ijodiy munosabatni

²Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma’naviyat, 2008. 139-bet.

shakllantirishdan, ularda badiiy asarga – kitobga bo‘lgan mehr va muhabbatni o‘stirishdan, bularning zamirida esa undagi badiiy-estetik didni takomillashtirishdan”³

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgacha ta’lim tizimida o‘zbek adabiyoti o‘qitishning turli masalalariga bag‘ishlab tadqiqotlar olib borildi. O‘zbekiston Milliy universiteti, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAUning tegishli kafedralari o‘qituvchi va tadqiqotchilari tomonidan adabiyot o‘qitishning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan metodik maqolalar to‘plamlari, darslik va qo‘llanmalar chop etildi. Professor B. To‘xlievning adabiyot o‘qitish metodikasi borasidagi qator ilmiy ishlari, professor Q. Yo‘ldoshevning “Adabiyot o‘qituvchisiga metodik yordam” turkumidagi risolalari, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasini tomonidan chop qilinayotgan maqolalar to‘plamlari, ushbu kafedra tashkil qilayotgan “Til va adabiyot ta’limida yangi pedagogik texnologiyalar” respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, shuningdek, respublikamizda nashr qilinayotgan “Til va adabiyot ta’limi”, “O‘zbek tili va adabiyoti” kabi manbalarda metodist olimlar va adabiyot o‘qituvchilari tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Adabiyot darslarida mumtoz she’riy asarlar bilan bog‘liq nazariy ma’lumotlarni o‘rgatish, aruz she’riy tizimiga oid asarlarni sharhlashning samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Bitiruv malakaviy ishini yoritish davomida:

-akademik litseylardagi adabiyot darslarida mumtoz asarlarni sharhlab o‘rgatishning usul va uslublarini yaratish;

-mumtoz she’riy asarlar bilan bog‘liq nazariy ma’lumotlarni o‘quvchilar onggiga yetkazishning samarali usullarini ishlab chiqish masalalariga e’tibor qaratildi;

-mumtoz she’riy asarlarni sharhlab o‘rgatishning o‘rni va ahamiyatini aniqlash;

³Б.Тўхлиев. Адабиётўқитишметодикаси. Тошкент, АlisherNavoiynomidaгиЎзбекистонМиллийкутубхонасинашриети, 2010, 8-9-бетлар.

- aruz vaznidagi asarlarni o'rgatish bo'yicha tavsiyalar berish kabilar asosiy vazifalar sifatida belgilab qo'yildi.

Tadqiqotning obykti. Adabiyot darslarini tashkil etish haqidagi ilmiy ishlar, akademik litsey dastur va darsliklari mazkur ishga jalb qilindi.

Tadqiqotning predmeti. Akademik litsey dastur va darsliklaridan joy olgan mumtoz she'riy asarlarni o'rgatish usullarini tadqiq qilish.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishda o'zbek adabiyoti o'qitish nazariyasi va metodikasidagi mavjud qarashlar asosida adabiyot darslarida mumtoz she'riy asarlarni sharhlab o'rgatish haqidagi fikrlar umumlashtirilib, chuqur ilmiy-nazariy xulosalar chiqarildi. Bunda:

- adabiyot darsliklarida aruz she'riy tizimiga oid nazariy tushunchalarning berilishi bo'yicha munosabat bildirildi;

- mumtoz asarlarni sharhlash va uni o'qitishdagi murakkabliklar aniqlanib, o'quvchilar ongiga yetkazish usullari o'rganildi.

- mumtoz she'riy asarlarning sharhlangan matni ustida ishlashda ifodali o'qishning o'rni va ahamiyati haqidagi fikrlar umumlashtirildi;

- mumtoz asarlar bitilgan tizim ya'ni aruz she'riy tizimining o'ziga xosliklari tadqiq qilindi hamda mazkur vaznda bitilgan adabiyot durdonalarini o'qitish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy qimmati adabiyot darslarida aruz she'riy tizimida yaratilgan mumtoz asarlarni o'rgatishga bag'ishlanganligi bilan karakterlanadi. Shuningdek, tadqiqotning xulosalari va tahlil materiallari akademik litseylarining adabiyot darslarida she'riy tizimlarga oid nazariy tushunchalarni o'rgatish va sharhlash masalalariga oydinlik kiritadi va o'rgatishda adabiyot o'qituvchilari uchun manba bo'la oladi. Shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazishda ham tadqiqot materiallaridan unumli foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi va hajmi. BMI uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 70 sahifani tashkil qiladi.

I BOB. MUMTOZ SHE'RIY ASARLARNI SHARHLAB O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. O'rta maxsus ta'limi dasturlarida mumtoz she'r namunalarning joriylanishi va bugungi holati

Adabiyot ta'limida mumtoz she'riyatimizni o'rganishda DTS hujjatlarida aks ettirilgan talab va tavsiyalarga muvofiq tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Davlat ta'lim standarti ta'lim xodimlari o'qituvchilar uchun me'yoriy hujjat sifatida xizmat qilmoqda. Standart talablari esa ta'lim jarayonida bir necha yangi usullarni tatbiq etishni taqozo qiladi. Buning samarali yo'llaridan biri ilg'or pedagogik texnologiyalarni mahalliy ta'limga olib kirish, milliylashtirish va uni ta'limga tatbiq etishdan iborat. Ilg'or pedagogik texnologiya ham shu maqsadni o'zida ifoda etgan bo'lib, DTS talablarini bajarishga xizmat qiluvchi usullardan. Ilg'or pedagogik texnologiyaning maqsadi ta'lim jarayonida, ayniqsa DTS talablari asosida bilimlarni egallashda o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligini shakllantirishga qaratilgan. Respublikamiz ta'lim-tarbiya tizimida borayotgan tub islohotlar jarayonining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-nazariy, iqtisodiy hamda tashkiliy asosi bo'lmish "Ta'lim to'g'risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", Respublika Prezidentining farmonlari va hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar o'quv predmetlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda boshqa o'quv-metodik vositalarni yanada takomillashtirishni taqozo etib, ta'limni sifat jihatdan yangilashni talab qilmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilingandan so'ng o'rta umumta'lim tizimida o'qitiladigan fanlardan davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari ishlab chiqildi va hukumat tomonidan tasdiqlandi. Mamlakatimizda ta'limning huquqiy asoslari, istiqbollari qonun bilan, uning mazmun va sifati standartlar bilan, tashkiliy-amaliy jihatlari o'quv dasturlari bilan belgilangan, o'quv-metodik tadbirlar darslik va qo'llanmalarda tavsiya etilgan. Demak, jamiyatda sohaning qonuniy, huquqiy, tashkiliy asoslari yaratilgan, tizimga solingan. Endi bu yog'i ana shu "belgilab qo'yilgan"larni amalga oshiruvchi muassasalar, ta'lim amaliyotining ishtirokchilari: pedagoglar,

soha raxbarlari, shuningdek, o'quvchilar va ularning ota-onalariga bog'liq. Ta'lim bosqichlarida o'qitiladigan hamma predmetlar uchun bir xil shart-sharoit, o'quv, moddiy-texnik baza yaratilgan. Ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan muvaffaqiyatlar, qo'lga kiritilgan yutuqlar ham bor. Lekin har bir predmet bo'yicha ishlar sarhisob etilganda turlicha natijalar qayd etilayotganligiga guvoh bo'lamiz. Ilmiy-nazariy asoslari deyarli barqaror, o'zgarmas bo'lgan tabiiy-matematik fanlar bilan jamiyatning ma'naviy - ma'rifiy, mafkuraviy qarashlariga aloqador bo'lgan ijtimoiy-gumanitar fanlarga yondashuv o'rtasida tafovut bo'lishi tabiiy bo'lganidek, ularni o'qitishda duch kelinadigan muammolarda ham ayrichaliklarning bo'lishi turgan gap. Chunki mustaqillikdan keyin nazariy mohiyati tubdan qayta ko'rib chiqilgan ijtimoiy fanlarning ilmiy-pedagogik, o'quv-metodik asoslariga yangicha yondashuvni davrning o'zi taqozo etmoqda. "Asr boshidan buyon "ko'rsatib berish", "fosh etish", "aniqlab olish" bilan shug'ullanib kelgan milliy adabiyotshunoslik asr adog'iga yetganda tadrij, va talqinga mayl ko'rsatmoqda. Endilikda o'zbek adabiyoti tarixi yangilanayotgan badiiy tafakkur talablari asosida qayta idrok etilmoqda, bu davrda yaratilgan asarlarning asl mohiyatini ochishga harakat qilinmoqda. Adabiyotshunoslik uzoq, vaqt mobaynida badiiy asarlarni asosan ijtimoiy nuqtai nazardan tekshirishga moslashgan bo'lsa, endi mavjud qoliplarni tark etaroq badiiy matnga estetik talablar asosida yondashishga, har qanday xulosani matndan keltirib chiqarishga urinmoqda. Natijada, ko'plab bitiklarning asl badiiy qiymati, bir qator adiblarning millat estetik tafakkuri taraqqiyotidagi tarixiy o'rni xolisona belgilanayotir". Adabiyotshunoslikdagi mazkur yangilanishlarni adabiyot o'qitish jarayoniga tadbiiq etish o'tgan asr 90-yillarning birinchi yarmidan boshlab yaratilayotgan dastur, darslik va qo'llanmalarda aks etib, bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Bu o'z navbatida Respublika maktablaridagi adabiyot o'qitish ishiga ijobiy turtki berdi. Shuningdek, Qozoqboy Yo'ldoshev, Boqijon To'xliyev, Safo Matchon, Marg'uba Mirqosimova, Qunduzxon Xusanboyevalarning doktorlik ishlari asnosida olib borgan tadqiqotlari, yaratgan monografiya va qo'llanmalari hamda ushbu olimlar rahbarligidagi ilmiy izlanishlar soha rivojiga sezilarli hissa

qo‘shmoqda.

Ma‘lumki, hozirgi paytda o‘rta maktablarda va akademik litseylarda adabiyot ta‘limi mazmunan xalq og‘zaki ijodi, eng qadimgi (islomgacha bo‘lgan) davr adabiyoti, mumtoz adabiyot hamda yangi davr adabiyoti tarzida o‘qitilmoqda. Bu davr, ruknlarga mansub namunalarning o‘qitilish saviyasi hamda murakkablik darajasi bir xil emasligi barcha mutaxassislariga birdek ayondir. Qaysi bir muallim xalq og‘zaki ijodini, kimdir qadimgi davr ijod namunalari, yana boshqasi hozirgi davr adabiyotini sevib, ko‘ngildagiday o‘qitishini e‘tirof qilishi mumkin, lekin mumtoz adabiyot namunalari ortiqcha qiynalishlarsiz o‘taman deydi o‘qituvchini topish amrimahol. Avvalo diqqatni mumtoz adabiyot namunalari o‘qitilishining hozirgi kundagi ahvolini tahlil etishga qaratdik. Chunki biror kimsaga nimanidir tavsiya etish yoki nimanidir o‘rgatish uchun, avvalo, o‘sha masalaning joriy holatini aniqlab olish zarur bo‘ladi. Shunday qilib, Akademik litseylarda mumtoz adabiyot qanday o‘qitilmoqda? Aslida bu ritorik savolga o‘xshab ketadi javobi aniq — yaxshi emas. Lekin bu “*yaxshi emas*”liklar nimalarda namoyon bo‘ladi? Sababi nimada? Ularning ildizlari qayerga borib taqaladi? Ana shu savollarga javob topish muhim. Bu tashxis qo‘yishdek bir gap. Shunga qarab chora izlanadi, tadbir belgilanadi. Bizningcha, qoniqarsiz ahvolning ikki: ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablari mavjud bo‘lib, ularning biri boshqasining chuqurlashuviga sabab bo‘lmoqda. Ob‘ektiv omillar o‘qituvchi shaxsiyatidan ko‘ra ko‘proq ta‘lim mazmunini tashkillashtiruvchi muassasalar, direktiv hujjatlar bilan bog‘liq. Biz bunda, avvalo, standartlar, dasturlar, darslik va metodik hamda o‘quv qo‘llanmalarni nazarda tutmoqdamiz. Biz standart va dasturlardagi to‘ldirilishi kerak bo‘lgan o‘rinlar, darslik va qo‘llanmalardagi bartaraf etilishi lozim ko‘ringan nuqson va kamchiliklar borasida mulohazalarimizni bayon etamizki, yechimini kutayotgan muammolarning talay qismi ular bilan ham bog‘liq. Biz, avvalo, standartlar to‘grisida so‘z yuritamiz. “Davlat ta‘lim standartlari umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta‘lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi”. Umuman olganda adabiyot bo‘yicha DTS ushbu fanning mazmun va sifatiga qo‘yilgan talabni qoniqarli darajada aks ettiradi. Mazkur

hujjatning mohiyat jihatdan yaxlit, umumiy harakterda bo'lishini nazarda tutsak, unga jiddiy e'tiroz bildirishga asos yo'q. Faqat nazarimizda, yanada aniqlashtirilishi kerak bo'lgan o'rinlar, xususan, unda mumtoz adabiyot o'qitilishiga doir mazmuniy tafsilotlar, sifatiy ko'rsatkichlar alohida o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Adabiyot ta'limida mumtoz she'riyatimizni o'rganishda DTS hujjatlarida aks ettirilgan talab va tavsiyalarga muvofiq tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Davlat ta'lim standarti ta'lim xodimlari o'qituvchilar uchun me'yoriy hujjat sifatida xizmat qilmoqda. Standart talablari esa ta'lim jarayonida bir necha yangi usullarni tatbiq etishni taqozo qiladi. Buning samarali yo'llaridan biri ilg'or pedagogik texnologiyalarni mahalliy ta'limga olib kirish, milliy lashtirish va uni ta'limga tatbiq etishdan iborat. Ilg'or pedagogik texnologiya ham shu maqsadni o'zida ifoda etgan bo'lib, DTS talablarini bajarishga xizmat qiluvchi usullardan. Ilg'or pedagogik texnologiyaning maqsadi ta'lim jarayonida, ayniqsa DTS talablari asosida bilimlarni egallashda o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligini shakllantirishga qaratilgan. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol usullar, uslublar, innavatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

1.2. “Adabiyot qoidalari” darsligida nazariy ma'lumotlar ifodasi

Akademik litseylar o'quv dasturiga kiritilgan “Adabiyot qoidalari” fanida aruz she'riy tizimini o'rganishga 16 soat vaqt ajratilgan. Ularning 8 soatida sof nazariy masalalarni o'rganish, yana 8 soatida aruz vaznida yoziladigan she'r shakllarini o'rganish ko'zda tutilgan. Negadir bu vaqt mobaynida o'rganiladigan mavzular namunaviy dasturda alohida ajratib ko'rsatilmagan. Shuning uchun biz birinchi 8 soatlik, ya'ni nazariy bilimlarga ajratilgan vaqt byudjetini quyidagicha taqsimlashni tavsiya qilamiz: **1.Kirish.** Qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq hijolar. (2 soat); **2.Ruknlar,** ularning tarkibi va turlari. (2 soat); **3.Bahrlar,** ularning tarkibi va turlari. (2 soat); **4.Taqte.Vaz nlar.** Vazn va janrlar munosabatlari. (2 soat). Albatta, aruz sistemasining barcha nazariy masalalarini o'rganishni ushbu sakkiz soatga

sig‘dirish juda mahol ish. Shu sababli o‘qituvchi vaqtdan unumli foydalanishi, bolalarning ushbu yoshdagi ong-tushunchalarini e‘tiborga olgan holda masalalar mohiyatini ochishga intilishi zarur. Yuqorida ta‘kidlaganimiz kabi aruz nazariyasiga bag‘ishlangan dastur va darsliklarga tayangan holda ish ko‘rish ko‘pgina murakkabliklar keltirib chiqaradi. Negaki, ularning aksariyati arab-fors aruzshunosligi asosida yaratilgan qoidalardan kelib chiqqan holda yaratilgan. Masalan “Aruz vazni birliklari. Harakatli va sukun harf (tovush)lar. Ularning yordamida yuzaga kelgan hijolar. Arab aruzida hijo turlari: qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq. O‘zbek aruzidagi usullar”.⁴ Birinchidan, “Aruz vazni birliklari” deganda nima nazarda tutilmoqda? Hijomi, ruknmi, sabab-vatad-fosilalarmi, bahrmi? Ushbu tushunchalarning har bittasini “birlik” atamasi bilan nomlashimiz mumkin. O‘qituvchi bularning qaysi birini tanlashi va darsda o‘rganishni bilmay gangib qolishi tabiiy. Qolaversa, ushbu tushunchalarning istagan birini bu o‘rinda o‘rganish maqsadga muvofiq emas. Negaki, aruz nazariyasida va umuman she‘rshunoslikda ma‘lumotlarni eng kichik birlikdan – tovushlar va ulardan hosil bo‘ladigan bo‘g‘inlardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, “harakatli va sukun harf (tovush)lar” tushunchasi zamonaviy o‘zbek aruzshunosligiga umuman yot masalalardir. Professor Hotam Umurov tomonidan yaratilgan “Adabiyot qoidalari” o‘quv-ko‘llanmasida ham mana shu xil o‘rinlarni uchratishimiz mumkin: “Ma‘lumki, aruziyalar so‘zlarni bo‘g‘inlarga emas, balki harflarga bo‘ladilar. Harflar ikki xil: mutaharrik (harakatli) va sokin (harakatsiz)dir”. Atigi uch qatordan iborat ushbu parchada o‘quvchi ikkita yangi atamaga duch kelmoqda - “mutaharrik” va “sokin”. Garchi mazkur so‘zlarning ma‘nosi qavs ichida keltirilayotgan bo‘lsa ham, akademik litsey talabasi ularni to‘la tushunib, mazmun-mohiyatini anglashi uchun o‘qituvchisining arab tili fonetikasi bo‘yicha kamida yarim soatlik ma‘ruzasini tinglashi kerak. “So‘zlarni bo‘g‘inlarga emas, harflarga” bo‘lishning qanday hodisa ekanligini tasavvur qilmoq uchun ham ozmuncha vaqt talab qilinmasa kerak. Uchinchidan, dastur

⁴ Akademik litseylarning ijtimoiy gumanitar fanlar va horijiy filologiya yo‘nalishidagi tarmoq talim standarti va chuqurlashtirilgan fanlar o‘quv dasturlari. T., 2005, 122-bet.

muallifining “O‘zbek aruzidagi usullar” deganda nima ko‘zda tutayotganini bilib bo‘lmaydi. To‘g‘ri, arab, fors va o‘zbek aruzi va aruzshunosligida turli tafovutlar mavjud. Lekin “usul” atamasining zamirida “qonun”, “qoida” ma’nolarining borligini e’tiborga olsak, bu o‘rinda o‘zbek aruziga xos hamma farqli jihatlarni o‘rganish lozim bo‘ladi. Bu esa, imkoniyatdan tashqari talabdir. Zamondosh aruzshunoslar tomonidan she’riy sistemani o‘rganishning nisbatan oson usullari ishlab chiqilgan bir davrda qo‘llanma muallifining bu xil yo‘l tutishi – iste’modagi alifbolarga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan izohlash variantini tanlagani g‘ayrimantiqiy harakatdir. Qisqasi, adabiyot dasturlarini tuzish va darsliklardagi mumtoz she’riyat poetikasi masalalarini yoritishda mualliflar o‘z bilganlaricha harakat qilmasdan, soha mutaxassislari bilan bahamjihat va bamaslahat ish ko‘rsalar, taqdim qilinayotgan materiallarni o‘zlashtirish, milliy qadriyatimizning ajralmas qismi bo‘lgan ajdodlarimiz ma’naviy boyliklaridan bahra olishimiz birmuncha osonlashgan bo‘lardi. E’tirof etish kerakki, aruzshunoslik kutubxonasining bu qadar boyligiga qaramay, mumtoz she’riyat poetikasining ushbu sohasi bo‘yicha bilimdonlar juda kam. Bunday vaziyatning yuzaga kelishiga sabab esa, bizningcha, faqat bir omil – metodist va adabiyotshunos olimlarning masalaga nisbatan e’tiborsiz munosabatda bo‘layotganidir. Aruz nazariyasi tarixi ko‘rsatadiki, mazkur sistema avval arab, keyinchalik fors, undan keyin turkiy xalqlar adabiyotlarida paydo bo‘lgan va rivojlangan. Masalaning aruzni o‘rganish bilan bog‘liq jihati shundaki, bugungacha yaratilgan barcha monografiya, risola, darslik va qo‘llanmalarda aruzshunoslik tarixi haqida sharh berilibgina qolmay, bizning she’riyat bilan mutlaqo aloqasi bo‘lmagan, arab-fors aruzi uchun xarakterli bo‘lgan masalalar ham yoritilib, o‘rganilishi talab qilib kelinmoqda. Ustoz aruzshunoslardan biri to‘g‘ri takidlaganlaridek, “...o‘zbek aruzi uchun xos bo‘lmagan qoidalar, bahrlar, o‘zgarishlar, vaznlarni o‘zlashtirish ortiqcha vaqt sarflashdan boshqa narsa emas. Shuning uchun... o‘zbek aruzi qoidalarinigina, she’riyatimizda foydalanilgan va foydalanilayotgan bahrlar hamda vaznlarnigina o‘rganish” maqsadga muvofiqdir. O‘zining “Maktabda aruz vaznini o‘rganish” kitobida yuqoridagilarni ta’kidlagan A.Hojiahmedov negadir shu risolaning o‘zida

ham, aruzshunoslikka doir boshqa kitoblarida ham “o‘zbek aruzi uchun xos bo‘lmagan qoidalar”ni o‘quvchilar diqqatiga havola qiladi. Xususan, o‘zbek aruziy she‘riyatida 11 bahr mavjudligi holda, ushbu risolaning o‘zida 19 bahr va ularning tarkibiy tuzilishi to‘g‘risida nazariy ma‘lumotlar beriladi.⁵O‘quvchi va talabalar o‘rganishi uchun tavsiya qilinayotgan darslik va qo‘llanmalarda zamonaviy o‘zbek yozuvi (krillitsa va lotin alifbolari asosidagi) va fonetikasi xususiyatlarini mutlaqo e‘tiborga olmagan holda “ishlab chiqilib”, taqdim qilinayotgan qoidalar mavjudligi she‘riy tizimni o‘rganishni yanada murakkablashtiradi. Biz yuqorida taklif qilgan mavzularni yoritishda darslik va dasturlardagi mana shu xil kamchiliklarni e‘tiborga olishni ham maslahat bergan bo‘lardik. Bu xil qusurlardan holi mashg‘ulotlar mazmunini baqodir hol, imkoniyat darajasida ishlab chiqib, diqqatingizga xavola qilamiz.Ushbu maqsadimizni yuqorida taklif qilgan mavzularni o‘tish va o‘rganish bilan bog‘lagan holda amalga oshirishga intilamiz. Shunday qilib, birinchi mavzu: Kirish. Qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq hijolar.(2 soat); “Aruz” atamasining mazmuni.Aruz she‘riy sistemasining vujudga kelishi.Aruz–mumtoz she‘riyatimizning asosiy she‘riy tizimi sifatida. Aruzshunoslikning paydo bo‘lishi. Arab, fors va turkiy xalqlar aruzshunosligining yirik vakillari. Qisqa hijo, uning ikki turi, paradigmadagi belgilari. Cho‘ziq hijo va uning uch turi, paradigmadagi belgisi. O‘ta cho‘ziq hijo, uning ikki turi, paradigmadagi belgilari. Hijolar bilan bog‘liq hodisa va holatlar. O‘qituvchi vaqtdan unumli foydalanish niyatida hijolar va ularni ifodalovchi misollarni grafik ko‘rgazmali qurol sifatida uyda tayyorlab kelishi va dars jarayonida (masala ustida so‘z borayotganda) auditoriyaga ilib qo‘yishi yoxud zamonaviy texnologiya yordamida ekranda namoyish etishi mumkin. Ruknlar, ularning tarkibi va turlari (2 soat) Atamaning lug‘viy mazmuni. Ruknlarning ikki xil sabablar, ikki xil vatadlar va ikki xil fosilalardan tashkil topishi. Ruknlarni hosil qiluvchi bu xil unsurlarning tarkibiy tuzilishi, ularning paradigmalari.Solim (asosiy) ruknlar.Ularning yetti turi (Fauvlun, foilun, mafoiylun, foilotun, mustafilun, mafuvlotu, mutafoilun) haqida ma‘lumot.Tarmoq ruknlar.Bu xil ruknlarni yuzaga keltiruvchi zihoflar.Mafoiylun

⁵Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o‘rganish.T., O‘qituvchi, 1995.

rukni tarmoqlari. Foilotun rukni tarmoqlari. Mustafilun, mafuvlotu, fauvlun, foilun ruknlarining tarmoqlari va ularni hosil qiluvchi o'zgarish – zihoflar. Ushbu mashg'ulot o'qituvchidan juda katta tayyorgarlik talab qiladi. Solim ruknlar va ularning paradigmalari, tarmoq ruknlar va ularni maydonga keltiruvchi zihoflar, ularning o'zbekcha ma'nolari, paradigmalari aks ettirilgan murakkab jadvallar ifodalangan ko'rgazmali qurollar – slayd va grafik ko'rgazmalar tayyorlanib, dars jarayonida namoyish qilinadi. Monografiyalar, risolalar, darslik va qo'llanmalarda solim ruknlar soni sakkizta deb ko'rsatilishiga qaramay, nima sababdan ular soni 7 ta deya qayd qilinmoqda, degan savol tug'ilishi tabiiy, albatta. Bunga javobni yana o'sha aruzshunos ustozlar asarlaridan topamiz: “Shunday qilib, aruzning 19 bahri bilan tanishdik. Hazaj, rajaz, ramal, mutaqorib, hafifi, mujtass, sari bahrlari o'zbek shoirlari ijodida keng qo'llangan, mutadorik, komil, munsarih bahrlarida yaratilgan she'rlar unchalik ko'p emas. Ulardan sakkiztasi, xususan vofir, muqtazab, tavil, madid, basit, qarib, mushokil, g'arib bahrlaridan she'riyatimizda foydalanilmaydi”.⁶ Iqtibosda she'riyatimizda foydalanilmaydigan bahrlar qatorining birinchi o'rnida vofir bahri turibdi. Ushbu bahr manbalarda sakkizta rukndan bittasi sifatida o'rganilib kelinayotgan mafoilatunning takroridan hosil bo'ladi. Mazkur bahr ishlatilmas ekan, uni yuzaga keltiruvchi rukn mafoilatun ham istifoda qilinmasligi tayin. Shunday ekan, ularni dastur va darsliklarga kiritib, shundoq ham o'rganilishi qiyin bo'lgan aruz nazariyasini murakkablashtirishdan nima foyda?! Shu singari mulohazalar bilan biz mafoilatunsiz solim ruknlar qatorini – 7 ta ruknni o'rganish bilan cheklanishni tavsiya qilamiz. Shuni alohida takidlash kerakki, ushbu juft soatda o'quvchiga tavsiya qilinayotgan axborotlar ko'lami g'oyat kattaligi tufayli uni o'zlashtirish ularda qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli o'tilgan materiallarning hammasini bir yo'la o'zlashtirib olish o'quvchilardan talab qilinmagani ma'qul. O'quvchilar dars jarayonida tavsiya qilinayotgan ma'lumotlarni (jadvallarni ham) daftarlariga ko'chirib olib, ulardan keyingi mashg'ulotlarda, mumtoz adabiyot saboqlarida foydalanishlari uqtiriladi. Bu usul berilgan bilim va ko'nikmalarning asta-sekinlik bilan o'zlashtirilib

⁶Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent, Sharq, 1999, 131-bet.

borilishini taminlaydi. Bahrlar, ularning tarkibi va turlari (2 soat) Muayyan ruknlar, ular tarmoqlarining o'zlari va boshqalari bilan qo'shilib, muayyan tartibda takrorlanishi natijasida bahrlarning hosil bo'lishi. Bir xil ruknlardan tashkil topadigan bahrlar: mutaqorib, mutadorik, hazaj, ramal, rajaz, komil bahrlari, ularning murabba, musaddas va musamman ko'rinishlari. Ikki xil ruknning ketma-ket takroridan paydo bo'ladigan bahrlar: muzore, hafif, mujtass va munsarih bahrlari. Ikkita bir va bitta ikkinchi xil rukn birikuvidan yuzaga keladigan bahr: sari. Sari bahrining faqat bir ko'rinishi – musaddas shakli mavjudligi va buning sababi. So'nggi paytlargacha 19 bahrning o'rganib kelingani, ularning 11 tasini o'rganish maqsadga muvofiqligi. *Taqte. Vaznlar. Vazn va janrlar munosabatlari* (2 soat) *Taqte atamasi*. Uning qoidalari (vasl, imola, tag'yir, azl) haqida ma'lumot. O'zbek she'riyatida qo'llaniladigan faol vaznlar. Vaznlar xilma-xilligini yuzaga keltiruvchi omillar. Ruboiy vaznlari, ularning turlari. Ruboiy misralarining bir xil bo'lmagan, ammo yaqin vaznda bo'lishi mumkinligi. Tuyuqlar vazni, uning cheklanganligi. Izoh: Garchi harakatdagi dasturda aruz doiralari haqida ma'lumot va bilim berish nazarda tutilgan bo'lsa ham, biz ularni mashg'ulotlar rejasiga kiritmadik. Bizningcha, aruz ilmidagi mazkur tushunchalar faqat nazariy xarakterda bo'lib, hech qanday amaliy ahamiyat kasb etmaydi. Ular faqat tor doiradagi mutaxassislar uchun naf beradi, degan mulohaza bilan shunday yo'l tutishga jazm qildik.

1.3. O'zbek mumtoz adabiyotining asosi aruzshunoslikdir.

Mumtoz adabiyotning asosi bo'lmish "Aruz" she'riy tizimi asrlar davomida arab, fors-tojik va turkiy she'riyatlarda amaliy jihatdan qo'llanib kelishi bilan bir vaqtda ushbu xalqlar adabiyotshunosliklarida nazariy jihatdan xam takomillashib bordi. Aruz maxsus ilm sifatida maktab va madrasalarda muttasil o'rgatildi, mazkur she'riy mezon nazariyasi va amaliyotiga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratildi, risolalar bitildi. Halil ibn Ahmaddan so'ng Ibn Usmon Maziniy, Imom Ahmad Ibn Abdurabbih, Ibn al-Xatib at-Tabriziy, Ziyovuddin Abul Jaysh al-Hazrajiy kabi arab olimlari ushbu ilmga doir asarlar yaratib, aruz taraqqiyotiga

hissa qo‘shdilar. Aruz ilmi haqida, ayniqsa, fors-tojik adabiyotshunosligida ko‘plab asarlar bitildi. Mavlono Yusuf Nishofuriy (X asr) forsiy tilda aruzga oid asar yaratgan olimlarning birinchisi edi. Rashididdin Vatvotning (XIII asr) “Hadoyiq ussehr”, ushbu asrda yashab ijod qilgan Shams Qaysning “Al-Mo‘jam fi me‘yor ashor al-Ajam”, Nasriddiy Tusiyning (XIV asr) “Meyor ul-ashor”, shu asr vakili Salmon Savojiyning “Qasidatun masnuot al-aruz”, Abdurahmon Jomiyning (XV asr) “Risolai aruz” asarlari fors-tojik aruzining nazariy va amaliy taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etdi. Aruz ilmiy taraqqiyotiga turkiy xalqlar ichidan yetishib chiqqan adabiyotshunos olimlar ham munosib hissa qo‘shdilar. Mashhur faylasuf Abu Nasr Forobiy (X asr), Abu Ali ibn Sino (XI asr), Abul Qosim Zamaxshariy (XI asr), Abu Yaqub Yusuf ibn Abubakr Sakkokiy (XII-XIII asr)lar o‘zlarining arab va forsiy tilda bitgan ilmiy asarlari bilan faqat arab va forsiy aruzlarga emas, ayni vaqtda turkiy aruz taraqqiyotiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatdilar. Turkiy aruzning nazariy va amaliy jihatdan shakllanishi va izchil rivojlanib borishida Alisher Navoiyning ilk bor turkiy tilda yaratilgan “Mezon ul-avzon” asari alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Ulug‘ mutafakkir shoir aruz qoidalarini, xilma-xil bahrlari hamda vaznlarini turkiy tilda mufassal bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan, turkiy xalqlarning og‘zaki she‘riyati mezoni bilan aruz vaznlari hamohangligini atroflicha dalilladi hamda turkiy til xususiyatlarini nazarda tutgan holda aruzning turkiy adabiyotlarda, xususan, o‘zbek she‘riyatida keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ko‘plab o‘lchovlarini ham belgilab berdi. O‘zining lirik asarlari va dostonlarini yaratishda aruzning rango-rang vaznlarini sinchkovlik bilan sinovdan o‘tkazgan Alisher Navoiy turkiy tillarda ham aruz o‘lchovlari asosida turli-tuman janr va shakllarda g‘oyat latif lirik asarlar yaratish va yirik dostonlarni bitish mumkinligini amalda isbot ham qilib bergan edi. Bu bilan shoir turkiy tilning beqiyos boyligi va betakror go‘zalligini she‘riy o‘lchov jihatidan ham namoyish qildi. O‘zbek aruzining nazariy va amaliy jihatdan kamol topishida Zahiriddin Muhammad Boburning “Muxtasar” deb atalgan yirik ilmiy asarining ahamiyati beqiyosdir. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z asrining talantli shoiri va nosiri bo‘lishi bilan birga qobiliyatli adabiyot nazariyotchisi va olimi ham edi. Bu

da'voni uning "Boburnoma"sidagi ko'pgina fikrlar, jumladan, zamonasidagi shoir va olimlar haqida bildirgan mulohazalari tasdiqlaydi. Ikkinchi tomondan esa, "Boburnoma"dan ma'lum bo'lishicha, XV asrning oxirlarida adabiyot nazariyasi, xususan, aruzga bag'ishlangan ko'pgina risolalar, Jumladan, Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", Sayfi Buxoriyning "Mezon ul-ash'or" yoki "Aruzi Sayfiy" nomi bilan mashhur bo'lgan risolalar Boburning diqqatini o'ziga tortgan edi. Shunday qilib, Boburning aruz nazariyasiga bag'ishlangan ilmiy risolasi XVI asrning 20-yillarida dunyoga keldi. XVI asrning ikkinchi yarmida yaratilgan ayrim manbalardagi ishoralarga ko'ra, Boburning aruzga doir risolasi Mavorounnahr, ayniqsa, Buxoro va Samarqand adabiy muhitiga, ushbu muhit vakillariga ma'lum va mashhur bo'lgan. Bu fikrni XVI asrda yashab ijod etgan taniqli shoir va adabiyotshunos olim Hasan Nisoriyning 1565-1566-yillarda yozilgan "Muzakkiri ahhob" tazkirasida quvvatlaydi. Ushbu muallif o'z tazkirasida Zahiriddin Muhammad Bobur va uning ijodiga yuksak baho berib, "Risolai aruz" asari haqida ham g'oyat iliq fikrlar bayon qiladi. Shunday ekan, Nisoriy Boburning aruz haqidagi asarini shunchaki qarab chiqqan emas, balki uni chuqur mutolaa qilib, o'z ijodida amaliy foydalangan ham. Qizig'i shundaki, Boburning ushbu risolasi XVII- XVIII-XIX asrlarda yaratilgan manbalarda umuman tilga olinmaydi. Bu davr mobaynida ushbu asar olimlar va kitobxonlar nazariga tushmaganga o'xshaydi. Faqat XX asr boshlariga kelib mazkur kitobning bir qo'lyozma nusxasi Parijdagi Fransuz milliy kutubxonasida saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar paydo bo'la boshladi, u haqda maqolalar e'lon qilindi. Nihoyat, taniqli sharqshunos va adabiyotshunos olim M. Hamroev tahriri ostida 1969-yili Olmaota shahrida uyg'ur tilida chop etildi. Keyinchalik adabiyotshunoslar Saidbek Hasanov va I. Steblevalar asarni to'la ravishda bosmadan chiqarishga muvaffaq bo'ldilar. Shunday qilib to'rt asr o'tgachgina Boburning ushbu ilmiy risolasi keng kitobxonlar ommasi hukmiga havola qilinib o'z qadr-u qimmatini topdi. Zahiriddin Muhammad Boburning aruzga bag'ishlangan risolasi o'zbek she'rshunosligining qonuniy talablari natijasida hamda Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarining mantiqiy davomi sifatida yuzaga keldi. Agar Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon"i o'zbek

she'rshunosligining Navoiyga qadar va uning davridagi, qisman Navoiy ijodidagi xususiyatlarini, xususan, aruz bilan bog'liq tajribalarini nazariy jihatdan umumlashtiruvchi asar bo'lsa, Boburning "Muxtasar"i Alisher Navoiy ijodiy merosi va qisman muallifning – Boburning tajribalari asosida yuzaga kelgan asardir. Ana shu holning o'zi Bobur asarining qiymatini yanada oshiradi va uning XVI asrning 20-yillarigacha bo'lgan o'zbek she'riyatini aruz nuqtai nazaridan izohlaydigan asar ekanidan dalolat beradi. Mazkur asar faqat aruz vazni bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi deyish uning doirasini toraytirib qo'yishi mumkin. Aslida Boburning ushbu risolasida an'anaviy aruz va uning qonun-qoidalari bayon qilinibgina qolmay, unda o'zbek she'rshunosligi hamda eski o'zbek tili fonetikasining aruzga munosabati; turkiy o'zbek xalq og'zaki ijodi va yozma she'riyati orasidagi o'zaro ta'sir, ularning o'ziga xos xususiyatlari, muallifning o'zbek, ozorbayjon va fors-tojik adabiyotlarining zabardast namoyandalari ijodi, asarlari haqidagi mulohazalari ham mo'jaz tarzda o'z ifodasini topgan. Asarda adabiyotshunoslikning muhim masalalari o'zbek adabiyotining qardosh adabiyotlar bilan aloqa ko'lamida yoritilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning ta'kidlashicha, risolada aruzning 21 bahri va undagi 537 vazn tavsif qilingan. Shunisi diqqatga sazovorki, aruzga bag'ishlangan boshqa risolalarda, jumladan Alisher Navoiyning "Mezon ulavzon", Sayfi Buxoriyning "Mezon ul-ash'or"larida aruzning 19 bahri haqida ma'lumot beriladi. Bobur esa o'z risolasida tavil doirasida hosil bo'luvchi ariz va amiq bahrlari ham mavjudligini uqtiradi, bahrlar sonini 21 taga yetkazadi. "Risolai aruz"da ariz va amiq bahrlari tavil, madid va basit vaznlari qatorida "Doirai mutalifa"ga kiritilgan. Diqqatga loyiq tomoni shundaki, Bobur bu bahrlarning o'zbek va tojik shoirlari tomonidan kashf etilganini alohida uqtirib, ariz bahri haqida shunday yozadi: "Bu bahrni Ajam shuarosi paydo qilib, maqlubi tavil depturlar, ariz ham derlar». Asarda arizning to'rtta, amiqning ikkita vazniga misol qilib, jami to'qqiz bayt keltirilganki, shundan olti bayti o'zbek tilida bo'lsa, uch bayti forstojik tilidadir"⁷

⁷Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosli gitarixi. Toshkent, 1993, 138-139-betlar.

I bob yuzasidan xulosalar

Akademik litseylarda mumtoz she'riy asarlarning nazariy asoslari yuzasidan quyidagi mushohadalarni bildirish o'rinli:

- Bugungi kundagi litsey darsliklarida berilgan shoirlarning ijod namunalarini sharhlab o'rgatmasdan talabaga tushuntirishning iloji yo'q. Bu borada joriy darsturdagi kamchiliklarni bartaraf etish zarur.
- Adabiyot qoidalar darsligi aynan ana shu mumtoz asarlarni o'rganish bo'yicha chuqur bilim beradi mana shu darslikni chuqurroq o'rgangan talaba aynan mumtoz asarlarni asl mohiyatini tushunib yetadi
- akademik litseyda “Adabiyot qoidalari” darsligi uchun ajratilgan dars soatlari 16 soatni tashkil qiladi. Shundan 8 soati nazariy bilim berishga, 8 soati esa amaliy mashg'ulot uchun ajratilgan. Mana shu soatlar davomida talabalarda chuqur ko'nikma hosil qilish
- o'zbek mumtoz adabiyotining asosini aruzshunoslik tashkil etadi. Yuqorida aytkanimizday faqatgina mana shu soha bilan shug'ullanadigan mutaxasislarga chuqurroq o'rganishi kifoya. Bu she'r turini biz qadrlaymiz.

II BOB. MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI SHARHLAB O‘RGATISH YO‘LLARI

2.1. Mumtoz asarlarni sharhlab o‘rgatish metodlari va tavsiyalar

Qadim zamonlardan buyon ilmiy o‘rganishda keng qo‘llanib kelingan usullardan biri sharhlab o‘rganishdir. “Sharh” arabcha so‘z bo‘lib *ochish, bayon etish, oshkor qilish* kabi ma’nolarni anglatadi. Navoiy asarlari lug‘atida esa sharh *aylamak, izohlamoq* tarzida bayon etilgan. Ba’zi manbalarda sharh tavsifga o‘xshab ketishi, bu atama garchi sharh bilan ma’nodosh bo‘lsa-da, lekin u kengroq mazmuni anglatishi qayd etiladi. Yevropa ilmiy atamashunosligida sharh tushunchasi hamma vaqt ham bir xil ma’noni ifoda etmagan. Masalan sharh so‘ziga rus adabiyotshunosligida *komentariy* atamasi to‘g‘ri kelib, u *bayon etish*, kabi ma’nolardan tashqari, keng ma’noda, ya’ni ilmiy tadqiqot xarakteridagi ishlarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Tajribali o‘qituvchilarning fikricha, sharhlab o‘qitish orqali, biror asar matnini izohlash jarayonida o‘quvchilar notanish so‘z ma’nosi bilan, ayrim so‘zlarning ko‘chma ma’nosi yoki bir so‘zning bir necha xil ma’nolari bilan tanishadilar. Tarixiy-badiiy asarlarni o‘rganish orqali arxaik shevaga xos, arab fors tilidan kirgan so‘zlar ma’nosi oydinlashadi, o‘quvchilar ko‘z o‘ngida o‘tmish madaniyati oydinlashadi. Ba’zan darsda mavzuni badiiy asar nomini sharhlashdan boshlashga to‘g‘ri keladi. Masalan, Turdi Farog‘iyning she’rlarini o‘rgatishda u yashagan davr haqida ikki og‘iz gapirishdan boshlash zarur talaba o‘sha davrga kirsam darsning mazmundorligi ortadi. Boburning “Boburnoma”, Gulxaniyning “Zarbulmasal”, Maxmurning “Hapalak” asarlarini sharhlashda ham xuddi shu yo‘lni tutish mumkin. Shunga o‘xshash asarlarni sharhlash quyidagi qismlardan iborat bo‘ladi. **1.Lingivistik sharh** . (Tushunilishi qiyin so‘zlar, ma’nosi notanish va noaniq so‘zlar izohi). Sharhning bu turini quyidagi so‘zlar qamrab oladi: arxaik so‘zlar, tarixiy so‘zlar, dialektizm, arab-fors so‘zlar izohi. So‘zlarni shu tarzda izohlash uning qaysi tilga mansubligi haqida ham ma’lumot beradi. **2.Tarixiy-milliy sharh.** Bu xil sharhda qadimiy milliy urf – odatlar, an’analar, udumlar bilan bog‘liq bo‘lgan an’analar izohlanadi. **3.Tarixiy-adabiy sharh.** Bunda adabiy asarlardagi tarixiy davr bilan bog‘liq an’analar izohlanadi. Bundan tashqari asarlarni sharhlashda yana quyidagi turkum so‘zlar izohi bo‘lishi mumkin: Geografik joy nomlari, Badiiy asardagi tarixiy shaxslar, ular haqidagi qo‘shimcha ma’lumotlar, xalq maqollari, iboralar va

tasviriy vositalar, qahramonlarning ismi, tashqi qiyofasi, kiyim boshi, buyumlari. Son bilan ifodalangan soʻz va iboralar va hokozolar.⁸

Bugungi kunda Akademik litsey talabalari uchun oʻrgatilayotgan mumtoz asarlar haqida mening shaxsiy mulohazalarim quyidagilardan iborat. Birinchi navbatda darslikni qayta koʻrib chiqish maqsadga muvofiq, chunki berilayotgan ijod namunalari bir qarashda oʻquvchilarni band qilib turishdek tuyuladi undan bir maʼnaviy ozuqa olish hollari juda kam holatlarda uchraydi. Misol tariqasida darslikda berilgan Alisher Navoiyning **“Ashraqt min aksi shamsil-kaʼsi anvorul-xudo”** gʻazalini akademik litsey tugul hatto baʼzi oʻqituvchilarni oʻzi ham asl mohiyatiga yetib bormaydi. Chunki ushbu gʻazal boʻyicha hali bir toʻxtamga kelinmagan. Eng mukammal sharh sifatida Aʼzamxon Qozixoʻjayev sharhi hisoblanadi. Talabalar hatto ushbu gʻazalni sharhidan ham bir maʼnaviy ozuqa olishi amrimaholdur. Jadid adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Munavvar qori Abdurashidxonov shunday degan edi. “Har millatning maktab va madrasasi oʻldigʻi kabi, bizni ham maktab-madrasalarimiz garchi benizom va beusul oʻlsa ham, yoʻq demak darajada oz emas. Har millat avlodini tarbiyalash va taʼlimi ulumda koʻrsatgan himmat va gʻayrati kabi bizlarda ham oʻz maʼsum avlodlarini jaholat va gʻaflat zulmatida qolmoqigʻa hech bir rizolari oʻlmay, qoʻllaridan kelgancha taʼlim va tarbiyati avlodda qusurlik koʻrsatmakchi zotlar mavjuddirlar. Va lekin dunyogʻa nima uchun kelgonini bilmay, ilm va maorifgʻa aslo ragʻbat qilmay, jonidin shirin bolalarini koʻcha-bakoʻcha kezdirib, bechora maʼsumning aziz umrini jaholat otashina yondirgʻuvchi behamiyat va bediyonat otalar ham oramizda oz emasdur. Koʻp dindoshlarimizni koʻrarmizki, oʻz farzandlarini aslo maktabgʻa bermay orqalaridin ergashtirib, ruslar eshigida oʻzlari kabi xizmatchilikka oʻrgatib, dunyo va oxiratning saodati oʻlgʻon ilm va maorifdin mahrum qoʻymoqdin hech bir ibo qilmaslar. Baʼzi azizlarimiz bordurki, oʻgʻlini qoʻlidin tutib maktabga olib borur. Muallimdan tolib qilurgʻa: “Taqsir, shu oʻgʻlimni goʻshti sizniki, ustixonni bizniki, bir iloj qilib, tezlik ila naqd va nasiya yozmoqni oʻrgatib berursiz”, der. “Eshagiga yarasha tushovi” degan oʻzbek maqolicha, muallimlar ham aksarlari qonuni taʼlim-tarbiyadin butun-butun bexabar kishilar oʻlub, balki oʻquv va yozuvni ham lozimincha bilmasliklari vajhidan

⁸ M.Tursunova Adabiyot darslarida sharhlash usuli. “Til va adabiyot taʼlimi” oynomasi. 1992, №3,4. 23-bet.

bechora ma'sumalarni iste'dodi zotiyasig'a nazzora ikki yil zarifida jami' lavozumoti diniyani bildirmoq mumkin o'lg'on holda, to'rt-besh yilg'acha hijja usuli birla dunyo va oxiratga foydasi bo'lmag'on Fuzuliy, Navoiy, Xo'ja Hofiz va Bedil kabi mushkul manzuma kitoblarg'a umri azizini barbod etarlar.

Ey vatandoshlar! Diqqat nazari ila boqing! Bir bolani maktabg'a bermakdan maqsudi vojibot diniyamiz o'lg'on ilmi qiroat, masoili e'tiqodiya, farz, vojib, sunnat mustahab, harom, makruh, namoz va ro'za, haj va zakotlarni ham zaruroti dunyaviyamiz o'lg'on ilmi hisob, jug'rofiya, tavorix, xususan, «Tarixi Islom» kabi foydalik ilmlarni bildurmoq o'lg'on holda johil domlalarning «ta'limi faloniy, qoshi qaro, qaro ko'zi, qaro yuzi, oh, so'zi shirin», deb bolalarni fasod axloqig'a birinchi sabab o'ladurg'on manzuma kitoblar o'lmish. Bu xususda otada ayb yo'q, chunki bu bechorani e'tiqodida bolani o'qutmoq yolg'iz naqd va nasiya yozdurmoqdin iboratdur. Muallimda ham ayb yo'q, chunki bu zikr qiling'on ulumi zaruriyalarni bechora muallimning o'zi bilmas, balki ba'zilarini ismini ham eshitgan emas. Bechora na qilsun? Nochor, befoyda bo'lsa ham maktablarda bolalarga o'qitgudek bulardan boshqa bir kitob topilmag'on zamonlarda o'zi o'qib, bilgan kitoblari shu kitoblar o'ldig'i chun eski o'runlarda eski tushlarin ko'rmakdadurlar. Mani so'zimdan Fuzuliy, Navoiy, Xo'ja Hofiz, Bedillar kabi ulug' zotlarni tahqir qildi, deb gumon qilinmasun. Chunki mani g'arazim bu kitoblarni zotan befoyda demak emas, balki yosh bolalarg'a bu kitoblarning ta'limi befoyda, demakdir. Misola bir bolaga Fuzuliy o'rniga ilmi qiroat, Navoiy o'rniga masoili e'tiqodiya, Xo'ja Hofiz joyiga masoili amaliyot, Bedil badalig'a ilmi hisob o'qitilsa, din va dunyosi uchun qancha foydalar hosil qilib, musulmon o'lur.”⁹ Ushbu jummalani o'zi ham bugungi kundagi birgina Akademik litseylarning adabiyot darsliklaridagi haddan oshiq ko'p, o'quvchi deyarli tushunmaydigan tushunsa ham uning yosh xususiyatlarini inobatga olmagan holda berilgan she'r va dostonlar bugungi kunda o'zini oqlamoqdamikin, kim ayta oladi bugun hamma sohada “ARUZ” kerak deb, Kim ayta oladi litseydagi hamma talabalar mumtoz she'ni birday o'zlashtira oladi deb. Mening fikrimcha ko'proq tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, kundalik turmush tarzida uchraydigan holatlar bilan bog'liq asarlarni berib borib uni sodda sharhi bilan yondosh ya'ni o'quvchi avval

⁹ Munavvarqori Abdurashidxonov “BIZNI JAHOLAT - JAHLI MURAKKAB”, “Taraqqiy” gazetasi, 1906 yil, 14 iyun

tanish bo'lgan, mag'zini chaqqan asar bilan solishtirib o'rgatsa natija ko'rinadi. Alisher Navoiyning "Xamsa" asaridan ma'lum parchalar berilgan "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod va Xursav bahsi. Bu Navoiy ijodining cho'qqisi. Ko'p qavatli binoga chiqmoqchi bo'lsak birinchi qavat so'ngra ikkinchi qavat va hokazo. Alisher Navoiyning "Hayrat ul abror" dostonida Hazrati Ayyub hikoyati mavjud ushbu hikoyat bilan 5-sinf darsligida mavjud bo'lgan G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi bir biriga juda o'xshash buni talaba tez anglaydi va bundan ozuqa oladi. Xuddi shunday Navoiy ijodini o'rgatishda ham pog'onama-pog'ona o'rgatish joiz. Nafaqat Alisher Navoiy balki butun mumtoz shoirlarni nazarda tutmoqdamiz. Ammo berilgan ba'zi she'rlarni sharhlashda men tadqiqotchi, bo'lajak o'qituvchi sifatida ayrim metodlarni qo'llayman. Albatta shaxsiy qarash sifatida. Chunki bugungi kunda darslikda mana shu she'riy parchalar berilgan ekan biz bunga quyidagicha yondoshgan bo'lardik va uni amaliyotga tadbiq etamiz. Joriy dasturda 1-bosqich adabiyot darsligida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul- haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar", Nosiriddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarlari, Pahlavon Mahmud ruboiylari, Sayfi Saroyi g'azallari va "Gulistoni bit-turkiy" asari hamda "Suhayl va Guldursun" dostoni, Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Xo'jandiyning "Latofatnoma" asari, Sakkokiy, Atoiy, Gadoiy, Lutfiy ijodidan namunalari kiritilgan. Jahon adabiyoti durdonalari hisoblangan Rudakiy ijodi namunalari va Firdavsiyning "Shohnoma"sidan parcha o'rin olgan. 2-bosqich adabiyot darsligida esa XV asrning 2- yarmidan XX asrgacha bo'lgan davrdagi adabiy yodgorliklarni qamrab olgan. Unda Alisher Navoiy g'azallari, qit'alari, ruboiylari, tuyuqlari, mustazod, muxammas, tarjibandlaridan namunalari hamda "Xamsa" dostonidan parchalar, Husayniy ijodidan namunalari, Zahiriddin Muhammad Bobur g'azallari, ruboiylari va tuyuqlaridan namunalari, "Boburnoma"dan parcha, Majlisiy ijodi, Xojaning "Miftoh ul-adl" asaridan namuna, Abulg'ozir Bahodirxonning "Shajarayi turk" asaridan parchalar, Turdi Farog'iy, So'fi Olloyor ijodlaridan namunalari, Mashrabning devoni, Huvaydoning "Rohati dil" dostonidan lavhalar, Uvaysiy, Amiriy, Nodiralarning lirik merosi, Gulxaniyning "Zarbulmasal", Maxmur, Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy, Muqimiyning "Sayohatnoma"si, Furqat, Zavqiy, Komil Xorazmiy, Dilshodi Barno va Anbar Otin ijodiy merosi kabi mumtoz asarlar joy olgan.

Berilayotgan asarning **Zamonaviy variantini izlash** metodi. Bu metod asosan gʻazal va ruboiy janridagi asarlar uchun ahamiyatlidir. Avom ishqi kuylangan sheʼrlarda oshiq, maʼshuqa, raqib obrazlari yoki boʻlmasa koʻzining qaroligi soching sumbulligi va yorning turli aʼzolarini taʼriflash kabi misollarga zamonaviy sheʼriyatda ham mumtoz sheʼriyatda ham juda koʻplab misollar keltirish mumkin. Ushbu metodni doirasi cheklangan yaʼni har bir darsda ish bermasligi mumkin ammo oʻrnida foydalansa boʻladi. Masalan “Hayrat ul-abror” dostonidagi “yaxshilik va doʻstlik” haqidagi parchaga mos ravishda talabalar hayotida uchraydigan voqealarni misol qilsa boʻladi, bundan tashqari Abdulla Oripovning “Toshkent shaʼniga” sheʼrini Komil Xorazmiyning “Toshkand” sheʼri bilan birgalikda sharhlash

“Toshkent shaʼniga”

Goho oddiy maskanday tuyuladi, ochiq gap,

Har kuni yashayverib koʻnikib qolgan uying.

Toshkentim, ajib kentsan, muhtasham qoʻrgʻonsan zab,

Ming-minglab chaqirimdan koʻrinib turar boʻying.

Necha-necha ellarda duch keldim turfa zotga,

Toshkan desang yugurar yuzlariga tabassum.

Toshkent soʻzi uyqashdir tinchlik bilan hayotga,

Toshkent desa anglanur mehr bilan tarahhum.

(Toshkand)

Manzilib chun boʻldi ushbu yil diyori Toshkand,

Jon-u koʻnglim doim istar xor-xori Toshkand.

Burji mizonda edi masnadrishin shoxi Xoʻtan,

Ham barobar erdilar layl-u nahori Toshkand.

Nur-u zulmat oʻlchanib tun-kun ufuq maydonida,

Birdek erdi subhi sofi shomi tori Toshkand.

Xuddi shuningdek Ogahiyning ham “Navro‘z bo‘slun”, “Bahor”, “Navro‘z erur ” kabi she‘rlarni ham zamonaviy o‘quvchi uchun bulardan ham tushunarli she‘rlarga yondosh sifatida o‘qitish yaxshi samara beradi.

Milliylik metodi – an’ana qadriyatlarni unutmagan holda ish ko‘rish metodi ,ya’ni mumtoz asarlar yaratilgan davrda o‘quvchilar uni qanday o‘rgangan qay tartibda o‘rgangan.Agar u davr murakkablik qilsa Jadid bobolarimiz qoldirgan ilmiy merosdagi metodlar ham milliy metodga tayanch bo‘la oladi.Masalan Xojaning “Miftoh ul-adl” asarini o‘tish jarayonida berilgan hikoyatlarga tayangan holda tariximizda o‘tgan shohlarimizning olib borgan siyosatlari haqida qisqacha to‘xtalish yoki bo‘lmasa ishqiy mavzudagi g‘azallardagi xalqimizga xos ibo hayo,ayollarga hurmat,shukronalik kabi jihatlar to‘g‘risida o‘quvchini fikrlashga undaydigan ma’lumot keltirish dars saviyasini oshiradi.

Audio-video vositalarini qo‘llash metodi - mumtoz she‘riy asarlarning juda ko‘pchiligi qo‘shiqqa aylanib ulgurgani sir emas.Ammo bu metodni farqli jihati shundaki bunda o‘quvchilar aruz ilmidan xabar olganini hisobga olgan holatda o‘zlari uyda ovoz yoshish moslamasi (*bu o‘rinda telefon ovoz yozishi nazarda tutilmoqda*) orqali tayyorlab keladi bu albatta guruhni jamoaga bo‘lib vazifa qilib beriladi.Eng chiroyli o‘qilgan asar rag‘batlantiriladi.Qo‘shimcha sifatida bugungi kunda odatga aylangan darsda notiqlar tomidan maromiga yetkazib o‘qilgan asarlar ham eshittirilsa talabalarda ancha ko‘nikma hosil bo‘ladi.

“6x6x6” metodi

Ushbu metod yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a‘zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. “6x6x6” metodi asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhlar bittadan vakil bo‘ladi. Yangi shakllangan guruh a‘zolari o‘z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida

taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

Sharhlash metodi- bu metod ham yuqoridagi metodlarimiz kabi o'zimizning innovatsion metodlarimizdan. Bu metod ko'pincha chorak so'ngida, mustahkamlash darslarida, ochiq darslarda o'z nomini oqalaydi. Chunki bu metodda o'qituvchi guruhni ma'lum bir nomlar ostida (masalan yigitlardan iborat "Farhodlar", "Qayslar", "Shirinlar", "Laylilar") kabi guruhlarga bo'linadi. Birinchi jamoa jumla keltiradi ikkinchi jamoa sharhlaydi ketma ketlik davom etadi. Natijada she'riy parchaning mohiyati o'quvchi miyasida chuqurroq o'rnashadi. Misol uchun: "Zohid, sanga - hur, manga - jonona kerak, Jannat - sanga bo'lsun, manga - mayxona kerak." Baytini birinchi jamoa ikkinchi jamoaga yo'llaydi. 1 daqiqa vaqt ichida javob aytilishi belgilanadi.

2.2. Akademik litseylarda g'azallarni poetik xususiyatlarini o'rganish metodlari

Adabiyot darslarida she'riy asarlarni o'rganishda izohli o'qish lirik asar tahlilining samarali usuli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. She'riy asarni o'qish va tahlil qilish jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga alohida e'tibor beriladi. O'rta bahoga o'qiydigan o'quvchiga ham o'ylash va savolga ongli ravishda javob berish, matndan tegishli o'rinlarni topish uchun vaqt ajratilsa, u asta-sekin faollasha boshlaydi. Mustaqil fikr she'rni estetik baholashdagi mustaqillikka ham yo'lochadi. Natijada, o'quvchilarning she'rni badiiy idrok etishini chetdan kuzatish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash, o'z vaqtida tegishli maslahatlar bilan yordam qo'lini cho'zish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Adabiy ta'lim jarayonida she'riy asarlar tahlilida estetik jihatlarga e'tibor qaratish orqali o'quvchilar she'riyatga oshno bo'ladilar. Navoiy ijodiga oid darslar vositasida o'quvchilar ongi va tasavvurida buyuk adib siymosini – uning ijodiy qiyofasini shakllantirish mumkun bo'ladi. Navoiyning tashqi qiyofasi unga zamondosh bo'lgan san'atkorlar tomonidan chizib qoldirilgan. Imkoni bo'lsa, darsda shu rasmlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Adibning so'z

vositasidagi portreti esa ko‘plab ijodkorlarda mavjud. Biz Oybek ijodiga (“ Navoiy “ romani) murojat qilishimiz mumkin. Boburning “ Boburnoma “ sidagi ham asqotadi: “Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi. To turkiy til bila she’r aytibturlar, hech kim onchalik ko‘p va xo‘p aytqon emas”. Navoiyning shaxsiy fazilatlari, alohida qobiliyat va iqtidori haqida ham maxsus to‘xtash zarur. Ayniqsa uning zehni, xotirasi haqidagi tarixiy faktlar o‘quvchilarning qalbiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi va bu holat ularning adib ijodiga bo‘lgan qiziqishlarini oshiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Shunga ko‘ra adibning yod olgan asarlari, zamonaviy va o‘tgan adiblardan yod olingan she’rlarning miqdori haqidagi mulohazalarni ularni yetkazish o‘rinli bo‘ladi. Navoiy favqulotda qobiliyat egasi bo‘lgan. Uning iqtidori cheku chegara bilgan emas. U juda erta shuhrat qozongan. O‘zidan yoshi ulug‘ bo‘lgan zamondoshlari uning iqtidorini tan olishgan, unga qoyil qolishgan.

Navoiy she’riyati bilan muloqot o‘quvchilarning ichki olamini, ma’naviyatini boyishiga katta hissa qo‘shadi. Navoiyning vatan va vatanparvarlik haqidagi she’rlari faqat o‘sha davr kishisining kechinmalari sifatidagina emas, balki bugungi avlod, xususan, yoshlar uchun ham ibrat va namuna maktabi bo‘lishi tabiiydir. O‘quvchilar ongiga mana shu holatlar yetkazilishi kerak.

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,

El anga shafiqu mehribon bo‘lmas emish.

Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa,

Bulbulg‘a tikondek oshiyon bo‘lmas emish.

She’rni tahlil qilish jarayonida uning yuzaga kelishiga omil bo‘lgan hayotiy voqealarning tilga olinishi ham she’r mohiyatini anglab yetishda asosiy omillardan biri bo‘lishi mumkin. Ammo har bir she’r ostidagi ruhiy holatni aniqlash va anglab yetishning ancha qiyinligi, ba’zan umuman bo‘lmasligini ham e’tirof etish kerak. Navoiy she’riyati tuyg‘ular va fikrlarning yetukligi, tabiiyligi, favqulodda go‘zal va ta’sirchanligi, so‘z ma’nolarini kamalakdek tovlanishi bilan ajralib turadi.

Ko‘rgali husningni zoru mubtalo bo‘ldum sanga,

Ne balolig‘ kun edikim, oshno bo‘ldim sanga.

Har necha dedimki, kun- kundan uzay sendin ko‘ngul,

Vaxki, kun – kundan batarrak muftalo bo‘ldim sanga.

Man qachon dedim, vafo qilg‘il manga, zulm aylading,

Sen qachon deding, fido bo‘lg‘il manga, bo‘ldum sanga.

Qay pari paykarga dersan telba bo‘lding bu sifat,

Ey pari paykar, ne qilsang qil, manga bo‘ldum, sanga.

Ey ko‘ngil, tarki nasihat ayladim, ovora bo‘l,

Yuz balo etmaski, men ham bir balo bo‘ldum sanga.

Jomi Jam ichra Xizr suyi nasibimdur mudom,

Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo‘ldum sanga.

G‘ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro,

To Navoiydek asiru benavo bo‘ldum sanga.

She‘r ifodali o‘qilgach, savollar ustida ishlash mumkin bo‘ladi:

1. She‘rni o‘qish natijasida sizda qanday tuyg‘ular paydo bo‘ldi? She‘rda qanday obrazlar mavjud?
2. Birinchi bayt mazmunini qanday izohlash yoki sharhlash mumkin?
3. She‘r mavzusini aniqlang. Unga qanday sarlavha qo‘yish mumkin deb o‘ylaysiz? Qo‘ygan sarlavhangizni asoslab bera olasizmi?
4. “Balolig‘ kun” ifodasini izohlab bering. She‘rda yana qanday sifatlashlar qo‘llangan? Ular qanday vazifalarni ado etmoqda?
5. She‘rning qofiyasi va radiflarini aniqlang. Nima uchun ayni shu so‘zlarning qofiyada qo‘llanganligini izohlab bering.

6. Baytlar orasida mantiqiy bog‘lanish bormi? Uni qanday izohlash mumkin. Baytdan baytga o‘tgan sari shoirning ichki kechinmlari tasvirida qanday o‘zgarish va yangi qirralar kuzatiladi? Izohlab bering.

7. G‘azalda qanday tasvir vositalari qo‘llangan? Ular qanday badiiy- estetik vazifalarni bajarmoqda?

8. G‘azalning tili, unda qo‘llangan so‘zlarning emotsional – ekspressiv tomonlari haqida nimalarni ayta olasiz?

Navoiyning mazkur g‘azali lirik kayfiyatning o‘ziga xos ifodasi sifatida alohida e‘tiborga molikdir. Mana shu kayfiyatni tug‘dirish uchun she‘r ifodali o‘qiladi. Ifodali o‘qishdan so‘ng uning baytma – bayt tahliliga o‘tish mumkin.

Ko‘rgali husningni zoru muftalo bo‘ldum sanga,

Ne balolig‘ kun edikim, oshno bo‘ldim sanga.

Matla‘ning birinchi misrasida oshiq ko‘ngilning sog‘inchli ishtiyoqlari, yorga bo‘lgan dil talpinishlari o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, keyingi misrada shu oshiqlikdan pushaymonlik aks etgan. Bu ohang yorni ilk marta ko‘rgan kunga berilayotgan bahoda(ne balolig‘ kun edikim) mujassamlashgan. Qofiyaga “muftalo” va “oshno” so‘zlarining surilish mazkur motivni bo‘rttirib ta‘svirlashga xizmat qiladi. Misralar oxirida takrorlanayotgan radif – “bo‘ldum sanga” mazkur kechinmalarning bevosita so‘zlovchi–lirik qahramonga daxldorligini ta‘kidlab turadi. Ammo bu yerdagi pushaymonlikning oniy lahzalarga oidligini ham unutmazlik kerak. Keyingi bandlarda undan asar qolmaydi. Aksincha ularda lirik kayfiyatning boshqa qirralari yanada teranroq ochib beriladi. Endi bevosita lirik qahramonning umumiy holati tasviriga o‘tiladi:

Har necha dedimki, kun- kundan uzay sendin ko‘ngul,

Vaxki, kun – kundan batarrak muftalo bo‘ldim sanga.

Bu yerda ishqiy kechinmalarning o'ziga xos tasviri mavjud. U inson – lirik qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlarning tadrijini ko'rsatib bermoqda. Navbatdagi baytda ham shu ruh davom etadi. Endi lirik qahramon va uning nutqi yo'naltirilgan shaxs - ma'shuqaning o'z so'zlari orqali inkishof etish yo'li tanlanadi:

Man qachon dedim, vafo qilg'il manga, zulm aylading,

Sen qachon deding, fido bo'lg'il manga, bo'ldum sanga

Matla'da boshlangan men vas en ziddiyati barcha baytlarda davom ettirilgan. Faqat oldingi misralarda bu ziddiyatga kuchli urg'u tushmagan edi. Ushbu baytda esa ayni shu holatning bo'rttirib tasvirlanishi kuzatiladi. Bu bejiz emas – navbatdagi baytdan boshlab lirik “men”ga alohida e'tibor jalb qilinadi. Tuyg'ular ifodasi shu baytdan boshlab yanada quyuqlashtiriladi. Lirik qahramon bunga bevosita ma'shuqaga murojaati vositasida erishadi:

Qay pari paykarga dersan telba bo'lding bu sifat,

Ey pari paykar, ne qilsang qil, manga bo'ldum, sanga.

Mazkur murojaat yonida so'zlar takrori, ular vositasidagi mantiqiy qaytariq lirik qahramon muddaosining to'la va tasirchan ifodalanishiga xizmat qiladi. Keyingi baytda ham murojaat qilish usuli qo'llangan. Biroq, bu murojaat endi yorga emas, balki lirik qahramonning o'zigadir, o'z – o'ziga murojaat shakli sifatida ko'ngil tanlangan:

Ey ko'ngil, tarki nasihat ayladim, ovora bo'l,

Yuz balo etmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.

Bu yerda ziddiyat yuz va bir o'rtasida sodir bo'lmoqda. Keyingi baytda esa ziddiyatning mantiqiy kuchi yana bir pardaga ko'tariladi. Odatda, Jomi Jamga musharraf bo'lgan kishi hech narsaga muhtojlik sezmaydi. Ayniqsa, uning yonida “Xizr suyi” ham mavjud bo'lsa, bu endi har narsaga imkon degani bilan barobardir. Shunga qaramay u soqiy huzirida bir gado xolos.

Jomi Jam ichra Xizr suyi nasibimdur mudom,

Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.

Oxirgi bayt – maqta she'ning o'ziga xos yakuni sifatida maydonga chiqadi. Shunga ko'ra u barcha baytlardagi fikr oqimini davom ham ettiradi, ayni paytda ularning mantiqiy poyonini ham ko'rsatadi.

G'ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro,

To Navoiydek asiru benavo bo'ldum sanga.

1. Tasavvur qiling, siz akademik litseylarning ikkinchi bosqichida shu g'azalni tahlil etmoqchisiz. O'quvchilaringizga qanday savollarni bergan bo'lar edingiz? Shunday savollardan 10 tasini yozma ravishda ko'rsating. Akademik litseylarda va kasb – hunar kollejlarda Navoiyning bir qator ruboiy, g'azal va qit'alarini o'rganish asosida o'quvchilarning klassik she'riyat, lirik qahramon, lirik kechinma, lirik kayfiyat haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va boyitish mumkun bo'ladi. O'quvchilarga she'riy asarni talqin qilishda juda ko'p yo'l va usullar borligini, shoirning niyati ko'pincha tag ma'nolarda yashiringan bo'lishini, shunga ko'ra she'ning har doim ko'p ma'nolilik kasb etishini tushuntirish, ularda manashunga oid ko'nikma va malakalrni shakllantirish va rivojlantirish kerak bo'ladi. Misol tariqasida Abdulla Oripovning mashhur she'rini eslatish mumkin:

Bozorga o'xshaydi aslida dunyo,

Bozorga o'xshaydi bunda ham ma'ni.

Ikisi ichra ham ko'rmadim also

Molim yomon degan biror kimsani.

Yoki boshqa bir adibning she'rini ko'rish mumkin:

Dono o'ylar ko'rib nodonni,

Tabiatdan umr – bir ehson,

*Insonmi shu g‘animat onni –
Qadrlamay sovurgan inson?*

*Nodon o‘ylar ko‘rib dononi,
Tabiatdan umr – bir ehson,
Insonmi shu g‘animat onni –
Qadrlamay sovurgan inson?*

Mumtoz she‘rlarning shakliy tuzilishi bir-biriga o‘xshaydi. Bo‘lajak pedagoglar ana shu o‘xshashliklarni farqlashga o‘rganishlari kerak. Bu talabalar amalda qo‘llash orqali egallaydi. She‘rlarning janr xususiyatlarini farqlash talab etiladi. Yana bir usulga diqqatimizni qarataylik

1-topshiriq.

1. Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi,
Shod etmas emish ko‘ngulni mehnatda kishi.

Ko‘nglum bu g‘ariblikda shod o‘lmadi, oh,
G‘urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

2. Yo rab ul shahd-u shakar yo labmudur,
Yo magar shahd-u shakar yolabmudur.

Jonima payvasta novak otqali

G‘amza o‘qin qoshig‘a yolabmudur.

Talabalar matnni ifodali o‘qiydilar va har ikki she‘rni bir-biridan farqlaydilar.

1-topshiriq: Alisher Navoiyning “Qaro ko‘zum” g‘azalini ovoz chiqarib o‘qing.

Qaro ko‘zum, kelu, mardumlig‘ emdi fan qilg‘il,

Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

*Yuzung guliga ko'ngul ravzasin yasa gulshan,
Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il.
Takovaringg'a bag'ir qonidin hi no bog'la.
Itingg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.
Firoq tog'ida topilsa, tufrog'im, ey charx,
Xamir etib yana ul tog'da ko'hkan qilgil.
Xazon sipohig'a, ey bog'bon, emas mone,
Bu bog'tomida gar ignadin tikan qilg'il.
Yuzida temi kol mb, o'lsam, ey rafiq, meni
Gulob ila yuv-u gul bargidin kafan qilg'il.
Navoiy, anjumani shavqi jon aro tuzsang,
Aning boshog'lig'o'qin sham'i anjuman qilg'il
2-topshiriq: Tushunarsiz so'zlar lug'atini tnzing.
Mardumlig' - odamgarchilik; ko'z qorachig'idek xoslik.
fan - rasm, odat, ko'nikma
mardum - ko'z qorachig'i,
odamlar.
ravza – bog'i, chaman
takovar - ot (hayvon)
g'ainzada - g'am ezgan
rishta - ip,
chilvir rasan - ip, bo'yinbog'
ko'chkan – tog' talaba, Farh.
xazon - kuz
sipoh - lashkar*

gulob - gul bargi, shakar, suvdan tayyorlangan ichimlik

anjuman - yig'in , bazm

3-topshiriq: G'azalning nasriy bayonini tuzing.

- ▶ 1. Ey qaro ko'zligim, kelib odamgarchilikni odat qilgin. Ko'zim qarosidat qorachiq kabi o'm ashgin, yuzing gnliga ko'nglum bogl ini gulshan yasab ol, jonim gulshanini qaddi niholingga chaman qilg'il
- ▶ 2. Yuzing visoliga ko'ngillami yetsin desang, sochingni boshdanoyoq xalqa-xalqa qilgaysan.
- ▶ 3. Oting oyoqlarig'a bag'rim qonini xino qilib suit, itingga bo*yinbog' uchun jonim ipini olgin.
- ▶ 4. Ey falak tuprog'im firoq tog'ida topilsa, undan yana xamir qorib, yana o 'sha tog'da meni tog' qazuvchi (Farhod) qilgin
- ▶ 5. Ey bog'bon, agar bog'ni tikan qilib o 'rasang ham bu unga ko'z lashkarining kira olisliiga mone'lik qila olmaydi.
- ▶ 6. Ey do'stim, yuzida temi ko'rib o'lsam, meni gulob bilan yuvib gul bargi kafaniga o'ragin.
- ▶ 7. Ey Navoiy, shavq bazmini jon ichida tuzsang, uning boshog'liq o'qini majlisning shamiga aylantirgin.

4-topshiriq: G'azalni sharhlang. Birinchi, ikkinchi omonim so'zlar ishlatilib tajnis qo'llangan.

Qaro ko'zum - tardu aks.

5-bayt: Husni ta'lil.

6-bayt: Tanosub.

5-topshiriq: G 'azaldagi obrazlami aniqlang. Ulami "Tarmoqlar" usulida ifodalashga harakat qilib ko'ring.

Esda tuting! Tahlil qilinayotgan she'riy asar matni har bir partada bo'lishi kerak.

6-topshiriq: Taqte'sini aniqlashga harakat qiling.

Mujtassi musammani mahbuni maqtu'

Mafoilun failotun Mafoihin Fa'lun

V -V - VV-- V - V - - -

Qaro ko'zum. / kelu mardum / lig' emdi fan / qilg'il,

V-V-/ VV--/V -V/--

Ko'zum qaro/sida mardum/ kibi vatan /qilg'il.

V-V-/VV--/V-V-/---

Lirik asarlarni o'qib-o'rganishda uning janriy xususiyatlarini e'tiborga olish zarur. Chunki ayrim mumtoz she'rlarning shakliy tuzilishi bir-biriga o'xshaydi. Bo'lajak pedagoglar ana shu o'xshashliklarni farqlashga o'rganishlari kerak. Bunday malakaga talabalar amalda qo'llash orqali erishadilar. Talabalarga quyidagi topshiriqlar berish orqali she'rlarning janr xususiyatlarini farqlash talab etiladi:

1-topshiriq. Matnni ifodali o'qing. Shakliy o'xshash bo'lgan so'zlarning tagiga chizing hamda ular o'rtasidagi o'xshashlik qaysi jihatidan ekanligini izohlang.

1.Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,

Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi.

Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,

G'urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

2. Yo rab ul shahdu shakar yo labmudur,

Yo magar shahdu shakar yolabmudur.

Jonima payvasta novak otqalu

G'amza o'qin qoshig'a yolabmudur.

2-topshiriq. Shakliy o'xshash so'zlar she'riyatda qanday badiiy san'atni hosil qilishi haqidagi ma'lumotni Anvar Hojiahmedovning "She'r san'atlarini bilasizmi?" kitobidan topib o'qing yoki yodga olishga harakat qiling. Talabalar topshiriqni bajarishgach, har ikki she'rni bir biridan farqlaydilar.

*Yuzing ochkim, quyosh sadqang bo'lub boshingdin aylansun,
Yangi oy yuz tavozu ko'rguzub, qoshingdin aylansun.*

*Agarchi la'l-u yoqut el zamirig'a mufarrihdur,
Hayot afzo iki la'li guharpoishingdin aylansun.*

*Tan-u jonim hadaf aylab, o'q-u tosh otsang, ey chobuk,
Biri o'qingdin evrulsin, biri toshingdin aylansun.*

*Raqibing gar erur xasmim, ani yo'ldosh etib kelsang,
Sanga jon sadqa bo'lsun, jism yo'ldoshingdin aylansun.*

*Chu o'n sakkizga yetti yoshing, ol burqa jamolingdin
Ki, o'n sakkiz ming olam o'n sakkiz yoshingdan aylansun.*

*Boqib ko'z uchidin pinhon fosh etding tag'ofillar,
Yo'q-u borim hamul pinhon ila foshingdan aylansun.*

*Necha qallosh esam ham, ag'niyo ollida bosh egmon,
G'aniylar himmat ichra ushbu qalloshingdin aylansun.*

*Chu bergung non ila osh, ey saxiy, sidq ahlig'a bergil,
Riyo-vu kizb ahli noning-u oshingdin aylansun.*

*Ul oy ko'nglig'a qildi, Ogahiy, oh-u yoshing ta'sir,
Bori jon-u jahonim oh ila yoshingdan aylansun.*

II. G'azal ifodali o'qilgach, uning qanday mavzuda yozilganligini aniqlash topshiriq sifatida beriladi hamda g'azal qofiyasini aniqlash talab etiladi. So'ngra g'azal da ishtirok etayotgan obrazlar aniqlanadi.

Notanish soʻzlar lugʻatini tuzish topshiriq qilib beriladi

- Tavoze-kamtarlik
- Laʼl-u yoqut- dur-gavhar
- Zamir - koʻngil
- Mufarrih – shodlik
- Hayotafzo - hayotni yashnatuvchi
- Guharposh - gavhar sochuvchi
- Hadaf -nishon
- Chobuk - shoʻx ,oʻynoqi,goʻzal; mergan
- Xasm – dusliman
- Burqa - yuz pardasi, hijob
- Pinhon - yashirin
- Tagʻofil-beparvolik
- Fosh - oshkor
- Qallosh - kambagʻal, bechora
- Agʻniyo - boy-badavlat
- Riyovu kizb ahli - riyokor va yolgʻonchilar

Baytlar mazmunini sharhlashga alohida eʻtibor qaratiladi

- 1-bayt: Yuzingni och. quyosh senga fido boʻlib, boshingdan aylansin. Yangi oy yuz tavoze koʻrguzib qoshingdan aylansin. Shoir yor yuzining yorugʻligi (goʻzalligi) quyoshdan ham ortiq ekanligini va uning oldida quyosh fido boʻlishini, yangi oy ham yor qoshining nozik va egikligi jihatidan past darajada boʻlganligi uchun unga taʻzim qiladi.(husni taʻlil)
- ◆ 2-bayt: El koʻnglini laʼl, yoqut kabi qimmatbaho toshlar xursand qiladigan boʻlsa, hayot bagʻishlovchi gavhar sochuvchi ikki laʼlingdan aylansun. (istiora - 2 laʼl)

- ◆ 3-bayt: Ey sho‘x go‘zal, jon-u tanimni nishon qilib o‘q-u tosh otsang, biri o‘qingdan biri toshingdan aylansun. Laf-nashr jon-o‘q, tanatosh
- ◆ 4-bayt: Raqib garchi men uchun dushman bo‘lsa-da, agar uni yo‘ldosh qilsang, senga jonim fido bo‘lsin, jismim yo‘ldoshingdan (raqibdan) aylansun
- ◆ 5-bayt: Yoshing o‘n sakkizga yetdi, yuzingdan pardani ol, o‘n sakkiz ming olam o‘n sakkiz yoshingdan aylansin.
- ◆ 6-bayt: Ko‘zing uchidan yashirin boqib, beparvoligingni fosh qilding, bor-u yo‘g‘im o‘sha oshkor va yashirinligingdan aylansin.
- ◆ 7-bayt: Qancha bechora bo‘lsam ham boylar oldida bosh egmayman, ular himmat bilan mening faqirlikimdan aylansin.
- ◆ 8-bayt: Ey saxiy, non va osh bermoqchi bo‘lsang, sadoqat ahliga bergin, riyokor va kizb ahli osh-u nonigndan aylanib o‘tsin.
- ◆ 9-bayt: Ogahiy, oh va yoshing yorning ko‘ngliga ta’sir qildi, shekilli, butun jon-u jahonim oh va yoshingdan aylansin.

Badiiy san’atlarini aniqlash baytlar tahlili orqali olib boriladi

- 1-bayt: Tashxis- quyosh boshingdan aylansin, oy qoshingdan aylansin; tanosib - yuz, bosh, qosh; quyosh, oy
- 2-bayt: Istiora - ikki la’li guharposh
- 3-bayt: Tanosub - o‘q-u tosh, chobuk, tan, jon; laf va nashr
- 4-bayt: Tazod - yo‘ldosh - xasm, tashxis
- 5 - b a y t: Takrir-o ‘n sakkiz
- 6-bayt: Tazod - pinhon - fosh
- 7-bayt: Tazod va tard i aks - qallosh - ag‘niyo
- 8-bayt: Istiora va tazod - sidq ahli va kizb ahli Nido - ey saxiy
- 9-bayt: Takrir - oh va yosh; istiora - oy

Janr xususiyatlari aniqlash

- Ja n ri: g ‘azal

Mavzusiga ko‘ra: oshiqona

◆ Qofiyalanishi: a-a, b-a, v-a, g-a

■ Qofiyadosh so‘zlar, ya’ni misradagi ohangdosh so‘zlar yig‘indisi: boshingdin, qoshingdin, yo‘ldoshingdin, yoshingdan, foshingdan, oshingdin, guharposhingdin, toshingdin, qalloshingdin, radif: “aylansun” so‘zi.

Janr xususiyatlarini aniqlash

• Qofiya turi: murdaf (radifli) qofiya, ya’ni raviydan oldin kelgan tovush cho‘ziq unli bo‘ganligi uchun.

• Raviy, ya’ni qofiyani tashkil etuvchi tovush: “sh”

• Radif, ya’ni misra so‘nggida qofiyadan keyin aynan takrorlanuvchi so‘z: “aylansun” so‘zi.

Bilimlarnifaollashtirish uchun savollar

1. G‘azal shakliga mansub asarlarning misralari qay tarzda qofiyalanadi?
2. Ruboiy vag‘azal janrini bir-biridan farqlovchi asosiy xususiyatlarini ayting?
3. She‘riyatimizda barcha misralari qofiyalangan g‘azallar ham uchiydimi? Ular qanday nomlanadi?
4. Hozirgi zamon she‘riyatida ham g‘azalchilik va ruboiynavislik an‘analari davom ettirilganmi? Kimlar bu sohada ijod etishmoqda?

1-matn *Ko‘rgali husningni zom muftalo bo‘ldum sango, Ne balolig‘ kun edikim, oshno bo‘ldum sango. Har necha dedimki, kun-kundan uzay sendin ko‘ngul, Vahki, kun-kundin batarroq muftalo bo‘ldum sango.* Alisher Navoiy 2-matn *Ko‘zum uchadir, magarki yorim keladur, Es har dam ozar, magar nigorim keladur. Yo bodiyat firoq sayrida qilib, Yuz marhala qaf shahsuvorim keladur.* Alisher Navoiy Yuqorida keltirilgan lirik asarni janr xususiyatiga ko‘ra farqini aniqlang.

1. G‘azal haqida nimalarni bilasiz?
2. Ruboiyning qofiyalanishidagi o‘ziga xoslik to‘g‘risida fikr bildiring.
3. G‘azalchilikda kimlar shuhrat qozongan?

2.3. Ahmad Yassaviy ”Hikmatlar”ini innovatsion usullar yordamida sharhlab o‘rgatish

Hozirgi kunda keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari ta’limning ilg‘or texnologiyalarini o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy etishni zamon talabi darajasiga ko‘tardi. Bu o‘z navbatida ta’lim sohasiga texnologik yondashuvni tatbiq etish va pedagogik usulni qo‘llash O‘zbekistonning milliy ma’naviy-madaniy xususiyatlarini, tarixiy an’analarni hisobga olgan holda amalga oshirishni talab qiladi. Inson mukammallikka intilib yashaydi. Qanday yashash lozimligini ko‘rsatib turadigan andoza yaratish hamma zamonlarda ham ta’lim-tarbiyaning asosiy masalaridan biri bo‘lgan. Keyingi davrda ta’lim va tarbiya masalalari bilan mashg‘ul kishilarga shu narsa ma’lum bo‘lib qoldiki, andoza va namuna bo‘ladigan timsol va odob doirasini targ‘ib qilish bilan shaxs takomiliga erishish dushvor bir masala ekan. Bolani o‘z erkiga qo‘yib berish, uning atrofida voyaga etgach duch kelinadigan ijtimoiy hayot modeliga yaqin sharoit yaratib, uning yoshi, bilim darajasiga mos axborot va bilimlar tizimi bilan ta’minlash, ushbu ta’minotning eng samaralilarini ishlab chiqib, amaliyotga tabiiq etish zamonaviy adabiy ta’lim metodikasining asosiy vazifalaridan biriga aylanib qoldi. E’tirof qilish kerakki, yuqorida qayd qilinganidek, bu borada anchagina yutuqlarga ham erishildi. Adabiyot o‘qitishning zamonaviy texnologiyasi nazariy masalalari ishlab chiqildi. Maqola va risolalar tarzida talaba va o‘qituvchilar hukmiga havola qilinmoqda. Ushbu nazariy qarashlarni amaliyotga tatbiq qilish har bir o‘qituvchi, murabbiyning o‘ziga havola. Mumtoz adabiyot namoyondalarining ijodini o‘qitishda ko‘pincha o‘quv lug‘atlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Adabiyot fani yuzasidan o‘nlab ilmiy – didaktik adabiyotlar yaratilgan:

1. V.Rahmonov “O‘zbek klassik adabiy asarlari uchun qisqacha lug‘at”. Toshkent. “O‘qituvchi”, 1983yil.

2. J.Lapasov “Mumtoz adabiy asarlar o‘quv lug‘ati”. Toshkent “O‘qituvchi” 1994 yil. 3. B.Hasanov “Alisher Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at”, “Adabiyotshunoslik terminlar lug‘ati” kabilarni shular jumlasiga kiritishimiz mumkin. Bu yaratilgan lug‘atlardan o‘quvchilar asar mazmunini tushunishga,

mustaqil ravishda asarlarni o‘qiganda, yoxud matnda notanish so‘zlar uchraganda foydalanadilar.

Akademik litsey adabiyot darslikariga Ahmad Yassaviyning 40 ga yaqin hikmati kiritilgan. Ushbu hikmatlarni o‘rgatishda interfaol usullardan foydalanib tahlil qilishga harakat qilamiz.

Yassaviy ijodining asosiy qismini islom dini, Alloh, Muhammad payg‘ambar, turli pir-u mashoyixlar, tasavvuf bilan bog‘liq tafsilotlar tashkil etadi. Ammo ana shular asosida inson ma‘naviyati, poklik, jamiyat, hayot haqidagi chuqur mulohazalar yuritiladi. Hikmatlarda yaxshilik, mehr-oqibat, beva-bechoralarga muruvvat ko‘rsatish, sabr-qanoat, shaxs kamoloti, vatan tuyg‘usi, iymon va e‘tiqod xususida, nafs va nodonlik, ilmsizlik va johillikning oqibatlari kabilar borasida bahs yuritiladi. Shoir ishq, haqiqat, adolat, qanoat, diyonat singari masalalarga o‘zgacha yondashadi. Qiyinchilik, musibat, mehirsizlik, yo‘ldan adashishni qoralaydi:

Na onoda rahm qoldi, na otoda,
Og‘o, ini bir-biriga mojaroda.
Musulmonlar da’vo qilur, ichar boda,
Mastlio‘ bilan qarindoshdin tondi, ko‘rung.

Ushbu hikmat avval o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittirladi. Keyin esa qaysi mavzuda ekanligi o‘quvchilar tomonidan so‘raladi.

– bugungi kunda ham e‘tiborsiz qolgan farzandlar bormi?
–rahmsizlikni qanday tushunasiz?
– qadriyatlardan bexabar yoshlar bunday muammolarga uchrashi mumkinmi?

“Nima uchun?” jadvalli usuldan foydalanish mumkin.

–nima uchun insonga mehr zarur?
–chunki, inson tug‘ilishi bilanoq mehr orqali voyaga yetadi.
– nima uchun Ahmad Yassaviy mehr haqida hikmat bitdi?
– chunki mehirsiz qolgan farzand ushbu hikmatda aytilganidek, boda ichadi, aka va ukasi bilan doim janjallashadi.

–nima uchun bugungi kunda mehirsizlik o‘qibatida muammolar kelib chiqmoqda?

–chunki globallashtirish jarayonida ota-onalar juda band, farzandlariga yetarli e’tibor bermayaptilar, farzandlar nazoratsiz qolmoqda.


Ana shu tarzda o‘quvchilar bilan bahslashish mumkin.

“Yassaviy Ko‘ngli qatig‘ xaloyiq”ni shafqatga, g‘arib, yetim, mazlumlarga ozor etkazmaslikka chaqiradi:

G‘ariblarni ko‘rgan yerda og‘ritmangiz,
G‘ariblarga ochko‘zlanib so‘z qotmangiz.
Zaif ko‘rub g‘ariblarg‘a tosh otmangiz,
Bu dunyoda g‘ariblikdek balo bo‘lmas.

“G‘arib” so‘zining lug‘aviy ma‘nosini va nisbiy tushunchasini tahlil qilish orqali hikmatning g‘oyasi aniqlanadi.

“Tarmoqlash” usulidan foydalanib, g‘arib kishi tahlil qilinadi.



Yassaviy hikmatlaridagi markaziy obraz-Oллоh.U Xudo ishq, ya’ni ishq ilohiyini tan oladi.Navoiy “Mahbub-ul qulub” asarida ishqni uch qismga ajratgan.Uchinchisini “Haqgo‘ylar ishq bo‘lib, ular haqning ishq bilan atalibdirilar”,-deydi:

Ishq yo‘lida kecha-kunduz yig‘lag‘onlar,

Jondin kechib belin mahkam bog‘lag‘onlar.

Xizmat qilib haq sirini anglag‘onlar

Tun uyquni harom qilib nolon bo‘lur.

Bu misralarda Oллоhni tanish va uning ishqini idrok qilish ehtiroslarida o‘rgangan oshiqalar nazarda tutilgan. Demak, ushbu hikmatda qiyosiy tahlil vositasidan foydalansak bo‘ladi.

Yassaviya, Naqshbandiya tariqati asoschilari haqida ma‘lumot beriladi. Ular ijodidagi asosiy go‘ya ham Oллоh ishqini mujassam ekanligi ta‘kidlanadi. “Tushunchalar tahlil” jadvali usulda islom olamida mavjud tariqatlarni tahlil qilishi va davom ettirishi mumkin.

Naqshbandiya tariqati	dunyodan ko‘ngil uzgan
Yassaviya tariqati	ruh kishilari
Iya	Dunyoviy borliqdan, maishatdan voz kechganlar
?	?

Ahmad Yassaviy hikmatlarining katta bir qismi nafs masalasiga qaratilgan. Shoir ta‘kidicha, “nafsi yabon qushdek qo‘lga qo‘nmas” bir narsa. Bu qush o‘z xohishicha parvoz etaversa, odamni kundan kunga to‘g‘rilikdan ozdiraveradi. Oqibatda esa:

Nafsi yo‘liga kirg‘on kishi rasvo bo‘lur,

Yo‘ldin ozib, to‘zib, toyib gumroh bo‘lur.


Yotsa-tursa shayton bila hamroh bo‘lur...

Shoir nafs bandalariga qarata, “Nafsi tebgil, nafsi tebgil, ey badkirdor”, deb murojaat etadi. Yassaviy “oloh dardi”ni ishq o‘tlarida dilni yoqmoq, poklanish iztiroblari, tama, yolg‘on, makr, mansab va boylik hirslariga qul bo‘lmaslik deb tushungan.

Hikmatlarda haqqoniy asosga ega bo‘lgan hayot haqiqati mujassam ekanligini ushbu hikmat isbotlaydi. Haqiqatdan ham nafsni tiya bilishda gap ko‘p.

Qachon nafs tiyiladi? Nega nafs buzuvlar doim jamiyatni illatlarga to'ldiradi? kabi savol javoblar asnosida dars jonlantiriladi.

“Zinama-zina” usulidan foydalanilgan holda nafsni tiyish zinalarini barcha o'quvchilar o'zlari mustaqil tanlashlari, yozishlari kerak bo'ladi.



Ba'zan imkonsizlik kayfiyati ifodalanadigan hikmatlarni o'rganish ham bugungi kun avlodi uchun juda muhim, negaki, ishtiyoq, harakat kabi tushunchalar shundan keyin shakllansa ne ajab:

Ko'zum namlik, dilim g'amlik, men alamlik,

Nechuk iloj aylarimni bilmom, do'stlar.

Bu hasratda, nadomatda yoshim oqib,

Qayu taraf ketarimni bilmom, do'stlar.

Har bir inson ruhiyatiga xos bo'lgan xarakterlarga, hayotiy vaziyatlarga ham munosib javob topa bilish ham ist'edod sanaladi. Yuqoridagi hikmatda keltirilgan umidsizlikka tushish ruhiyati yetakchilik qiladi. Lekin hayot faqat olg'a intilishdan iborat ekan, o'sha umidsizlik o'rnida amaliy harakat qilinsa, barcha muammolarga barham beriladi. “Mening tanlovim” usulidan

foydalanilgan holda o'quvchilarning turli vaziyatlarga nisbatan qarashlari muhokama qilinishi mumkin.

Yassaviy "Xalqda saxovat", "podsho, vazirlarda adolat" yo'qligidan afsuslanadi. "Turluk balo xalq ustiga yog'"ganidan achinadi:

Ahli dunyo xalqimizda saxovat yo'q,
Podsholarda, vazirlarda adolat yo'q.
Darveshlarni duosida ijobat yo'q,
Turluk balo xalq ustiga yog'di, do'stlar.

Ijtimoiy hayot qiyinchiliklari va muammolari doimo xalqni ezgan va qiynaganligini yaxshi bilamiz. Ana shunday mavzuda yozilgan hikmatlar yoki she'rlarning mualliflarini va she'r nomini aytish uchun "Xotira" mashg'ulotini olib borish qulay hisoblanadi.

1. Turdi Farog'iy

"Tor ko'ngullik beklar man-man demang, qulluq qiling", "Hazratim ochlikdan o'ldim, yegali non ber menga" g'azali.

2. Sa'diy Sheroziy "Bo'stondan hikoyatlar" shoh va kishi hikoyati.

3. Cho'lpon "Buzilg'on o'lkaga" she'ri

Shu tarzda davom ettiriladi.

Yassaviy hikmatlarida asosiy o'rinlardan birini nodonlik egallaydi: shoir nodonlikni qoralaydi. Undan ranjiydi. Shoir "Duo qiling nodonlarni yuzin ko'rmay", deydi. O'nlab hikmatlarida uni qoralaydi:

Duo qiling nodonlarni yuzin ko'rmay,
Haq taolo rafiq bo'lsa birdam turmay.
Bemor bo'lsa nodonlarni holin so'rmay,
Nodonlardin yuz ming jaf o'rdum mano.
Ayo do'stlar, nodon birla ulfat bo'lib,
Bag'rim kuyub, jondin to'yub, o'ldim mano.
To'g'ri aytsam egri yo'lga bo'yin to'lg'ar,
Qonlar yutub g'am zahriga to'ydim mano.
Er ostig'a qochib kirdim nodonlardin

Ilkim ochib duo tilab mardonlardin.
 Farib jonim yuz tasadduq donolardin,
 Dono topmay er ostig'a kirdim mano.

Ushbu hikmatni "Zanjir" usulidan foydalanib, salbiy ma'nodagi so'zlarni tahlil qilish mumkin. Shunda shoir kayfiyati yaxshi anglashiladi. Har bir misra oxirida foydalanilgan fe'llar bo'yicha bahslashish mumkin, insondagi qanday kechinmalar shunday qarama-qarshi, asabiy holatlarga duch kelishi mumkinligi mushohada qilinadi. So'roq belgisi joylashgan o'rinlarda nima uchun shunday bo'lganligi izohlanadi.



Ahmad Yassaviy she'riyatidagi obrazlar tizimi ham tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq. Pir, darvesh, oshiq, obid, oqil, zohid, ishq, tolib, ummat, rasul, shayton, iymonkabiobrazlartasavvufbilanbog'liq. Yo'l, rabot, karvon, o'q kabilar og'zaki ijod an'analari bilan bog'liq.

Shuning uchun bu obrazlar tizimini an'anaviy va tasavvufiy obrazlar bo'yicha tizimlash o'quvchi tasavvurini boyitadi. O'quvchilar jadvalni mustaqil to'ldiradilar, so'roqlar o'rniga obrazlarni yozadilar.

Tasavvufiy obrazlar	An'anaviy obrazlar
---------------------	--------------------

Darvesh	?
Pir	?
Rasul	Bog‘bon
Shayton	Ona
Oshiq	Ota
Obid	Bobo
Zohid	Otabek
Tolib	Kumush
?	?
Ummat	?
?	?

Beshak biling, bu dunyo borcha xalqdin o‘taro,
Ishonmag‘il molingga, bir kun qo‘ldan ketaro.
Oto-ono, qarindosh qayon ketdi-fikr qil,
To‘rt oyog‘lig‘ cho‘bin ot bir kun sang‘a yetaro...

II bob yuzasidan xulosalar

Akademik litseylarda mumtoz she‘riy asarlarni sharhlab o‘rganishda interfaol usullardan foydalanish adabiyot o‘qituvchisining mahoratiga bog‘liq. Mumtoz asarlarni sharhlab o‘rganishda zamonaviy va milliy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi quyidagicha tahlil qilindi:

- Birinchi navbatda o‘qituvchi aruz vazni haqida chuqur ma‘lumotga ega bo‘lishi kerakligi ilmiy asoslandi. Darslikdagi murakkabliklarni oson hal qilish uchun ko‘proq milliylikka tayangan ma‘qul

- hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interfaol usullar, uslublar, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta‘limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda;

- pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llash bir muncha ishimizni osonlashtiradi

- har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv tarbiya jarayonida qo'llanishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talaba yoki o'quvchini kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq;

- Mumtoz asarlarni turli interfaol metodlardan foydalanib sharhlashda o'qituvchi ijodiy yondashuvining omili sifatida e'tirof etiladi;

- Ahmad Yassaviy ijodi bo'yicha hikmatlarning tahlil qilishda jadvallardan foydalanish, so'z birikmasining ma'nodoshini topish kabi izlanishlar natijasida o'quvchi so'z boyligi oshadi.

III. Bob Amaliyotga tadbiiq etilgan dars ishlanmalari va slaydlar

OCHIQ DARS ISHLANMASI

Sana: _____ Guruh : _____ Fan: Adabiyot

DARSNING SHIORI: Har kuni to'ldirib borilmaydigan bilim har kuni o'lib boradi...

Mavzu:	A.Navoiy "Xamsa" dostonlari tahlili
---------------	-------------------------------------

1.1 Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulotvaqti: 80 daqiqa	Talabalarsoni: 30ta
Mashg'ulotshakli	Aralashdars
Mavzurejasi:	1. Alisher Navoiy va uning "Xamsa" asari 2. "Xamsa" dostonlarining tub mohiyati 3. Asarlardagi qahramonlar haqida 4. Asosiy qahramonlarning o'zigaxosxususiyatlari. 5. Obrazlar va ramzlarning rang-barangligi
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Akademik litsey o'quvchilariga Alisher Navoiy va uning "Xamsa" asari tarkibidagi dostonlar haqida tushuncha berish. Ularda insondagi komillik, mardlik, mehribonlik, Oллоhni sevish tuyg'usini shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none">• Alisher Navoiyning "Xamsa" asari to'g'risidama'lumotberish;• Asarning mazmun-mohiyatini tushuntirish;• Tushunish qiyin bo'lgan so'z va	O'quv faoliyati natijalari: <ul style="list-style-type: none">• Alisher Navoiy va uning "Xamsa" dostoni haqida o'zlari ham qo'shimcha ma'lumotlar aytib, mavzuni mustahkamlash;• Asardan namunalarni aytib, ularni

jumlalar bilan o'quvchilarni tanishtirish;	sharhlab berish; • Asardan olgan taassurotlarini izohlash;
Ta'lim berish usllari	Aralash dars, suhbat, savol-javob, og'zaki va yozma nutqni o'stirish
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy, guruh
Ta'lim berish vositalari	Darsliklar, o'quv qo'llanma, shoir asarlari, guruh doskasi, proektor, tarqatmalar.
Ta'lim berish sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan xona.
Baholash	

1.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1.Mavzu bo'yicha dars mazmunini tayyorlash; 2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlar tayyorlash; 3.O'quvchilarning darsdagi faoliyatini baholash mezonini ishlab chiqish; 4.Foydalanilgan	

	adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtirish.	
1.Mavzuga kirish (15 daqiqa)	<p>1.1. Mavzu nomini aytadi. Adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi. (1-ilova).</p> <p>1.2. Dars mavzusi, uning maqsadi va dars faoliyati natijalari bilan tanishtirish.</p> <p>1.3.O'quvchilar faoliyatini baholash mezoni bilan tanishtirish (2-ilova).</p> <p>1.4.O'quvchilar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.</p>	<p>Tinglaydilar</p> <p>Tinglaydilar</p> <p>Tinglaydilar</p> <p>O'quvchilar berilgan savollarga javob beradilar</p>
2.Asosiy bosqich (55daqiqa)	2.1.Mavzuga doir nazariy bilimlarni, ma'lumotlarni beradi.	Tinglaydilar.

	<p>2.2.Darslikda berilgan “Xamsa” asaridagi dostonlardan parchalar o‘qilib sharhlanadi.</p> <p>2.3.Dostonlarning mavzusi va mohiyati yuzasidan o‘quvchilarga savollar beradi.</p> <p>2.4.Mavzuga tegishli tarqatma materiallar tarqatadi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>O‘quvchilarsavollargajavobberadilar.</p> <p>O‘quvchilar guruh bo‘lib ishlaydilar.</p> <p>Javob beradi</p>
<p>3.Yakuniybosqich (10daqiqqa)</p>	<p>3.1.Mavzu bo‘yicha o‘quvchilarda yuzaga kelgan savollaga javob beriladi.</p> <p>3.2.Mavzu xulosalanadi.Yakuniy sharh aytiladi</p>	<p>Savollar beriladi.</p> <p>Tinglaydilar</p>


DARSNING BORISHI

TASHKILIY QISM

- Salomlashish, davomat
- Xonaning tozaligi
- O‘quvchilarning diqqati darsga qaratib olinadi

• DARSGA QANDAY KAYFIYAT BILAN KELDINGIZ???

(BELGILANG)



O‘quvchilardan sana so‘raladi, O‘quvchilarni raqamlash asosida guruhlariga bo‘lib olamiz va guruhlash asosida birlashgan partalarga o‘tqizamiz.

I. O‘TGAN MAVZUNI TAKRORLASH:

O‘tgan mavzuni takrorlashda quyidagi metod va usullardan foydalanildi:

1.Klasster metodi


2. Baliq sekleti metodi

3. To‘rtinchisi ortiqcha metodi


4.Audio-video usuli

O‘quvchilarni baholash maqsadida guruhlariga oldindan tayyorlangan blets o‘yinlar tarqatiladi:

1.KLASSTER



2.BALIQSEKLETI



3.TO‘RTINCHISI ORTIQCHA METODI

1. Gulruxi ranoqadim.....
2. Tifllar toshiki....
- 3.Ko‘ngulga bo‘ldi ajoyib balo qaro soching.....
- 4.Sho‘x ikki g‘izolingni.....

Mazkur o‘yin texnologiyalarini o‘quvchilar quyidagicha bajaradi: **1.Klasster** Darslikda berilgan g‘azal, ruboiy, va boshqa janrlardagi sharh talab qilinadigan so‘zlar yoziladi (*to‘liq va ko‘p ma‘lumot yozgan guruh a‘lo baholanadi*) **2. Baliq skleti**da esa baliqning har bir qiltanog‘iga bittadan tepaga birinchi guruh savol yozsa ikkinchi guruh javob yozadi.Dum qismiga esa oxirgi ya‘ni olingan xulosa yoziladi.

3.To‘rtinchisi ortiqcha metodida esa Alisher Navoiy qalamiga mansub bo‘lmagan g‘azal olib tashalanadi va tezkorlik muhim sanaladi

4.Audio-video usulidan foydalanib darslikdagi “Ko‘rgali husningni zor-u mubtalo bo‘ldum sanga”, “O‘n sakkiz ming olam oshibi”, “Ko‘nglim ichra dard-u g‘am”, “Oshiq o‘ldum” g‘azallarini mashhur hofizlar tomonidan kuylanganini va notiqlar tomonidan o‘qilganini talabalarga



eshittiriladi. Proektor orqali Navoiy davriga oid tayyorlab kelingan suratlardan iborat video rolik taqdim etiladi. G‘azallarni yodlab kelgan talabalar aruz vazniga solgan holda yoki kuylanganidek o‘qib sharhlab berishlari ham ushbu usulni qo‘llash mobaynida amalga oshiriladi.

II.YANGI MAVZU BAYONI: Sharqda xamsachilikning o‘ziga xos tarixi va an‘anasi mavjud. “Xamsa” yozishni ozarbayjonlik ulug‘ shoir Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan. Lekin u bu asarini avvaldan niyat qilib, ma’lum bir reja asosida yaratmagan. Nizomiy 1173-1179-yillarda Arzinjon hokimi Faxriddin Bahromshohga bag‘ishlab “Maxzan ul-asror» (“Sirlar xazinasi”) nomli hamdnoma yozadi. 1180-1181-yillarda Iroq hukmdori To‘rg‘ul II ning iltimosiga ko‘ra “Xusrav va Shirin” dostonini yaratadi. 1188-yilda Shirvonshohlardan Axsatan I Nizomiyga “Layli va Majnun” dostonini yozishni buyuradi. 1196- yilda hukmdor Alovuddin Ko‘rpa Arslonning topshirig‘i bilan shoh Bahrom haqida “Haft paykar” (“Yetti go‘zal”) maydonga keldi. 1196-1201- yillarda “Iskandarnoma” yaratiladi. Shu tariqa 1173-1201- yillar oralig‘ida - 28 yil davomida muallifning besh dostoni dunyo yuzini ko‘rdi. Shundan so‘ng adibda turli yillarda bitilgan bu dostonlarni jamlab, yagona bir nom bilan atash fikri tug‘ilgan va “Panj ganj” (“Besh xazina”) nomi bilan mashhur bo‘lgan birinchi “Xamsa” vujudga kelgan. Nizomiydan yuz yildan so‘ng asli shahrisabzlik turkiy urug‘lar avlodidan bo‘lgan Xusrav Dehlaviy (1253-1325) o‘zining “Xamsa”sini 1299-1301-yillarda yozib tugalladi. U “Matla’ ul-anvor” (“Nurlarning boshlanmasi”), “Shirin va Xusrav, “Majnun va Layli”, “Hasht behisht” (“Sakkiz jannat”), “Oyinayi Iskandariy” (“Iskandar oynasi”) dostonlarini yaratib, Nizomiy ishini davom ettirdi va natijada adabiyotda xamsachilik an‘anasi paydo bo‘ldi. Shunga ko‘ra har bir asar “Xamsa”deb atalmog‘i uchun: a) besh dostonidan tashkil topmog‘i; b) birinchi doston, albatta,

pand-nasihat ruhidagi ta'limiy-axloqiy, falsafiy bo'lmog'i; d) ikkinchi doston Xusrav va Shirin munosabatlariga bag'ishlanmog'i; e) uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatini mavzu qilib olmog'i; f) to'rtinchi doston shoh Bahrom va beshinchi doston Iskandar haqida yozilmog'i shart edi. Dehlaviydan qariyb 200 yil keyin yana bir buyuk xamsanavis maydonga chiqdi. Bu Navoiy edi. Alisher Navoiyning "Xamsa"si boshqalardan farqli ravishda muallifning ona tilisida - turkiy tilda yozildi. Navoiy sher bilan tenglashadigan sher bo'ldi. U og'ir va mas'uliyatli vazifani muvaffaqiyat bilan ado etdi. Nihoyat qisqa bir muddat - ikki yil (1483 - 1485) davomida 51 ming misradan ortiq besh dostonni yozib tugalladi. U 1483- yilda "Hayrat ul-abror" falsafiy-ta'limiy dostonini, 1484- yilda uch asarni: "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun" ishq qissalarini, "Sab'ai sayyor" ishqiy-sarguzasht dostonini, 1485- yili esa "Saddi Iskandariy" qahramonlik dostonini yaratdi. Darslikda berilgan parchalarni o'qib tahlil va sharh qilib mma'lum bir ko'nikmalarni ,bilimlarni hosil qilib bo'lib yangi mavzu mustahkamlanadi.

III. YANGI MAVZUNI MUSTAHKAMLASH

I. O'quvchilar 6x6x6 metodi asosida 6 guruhga bo'linishadi .

- 1-guruh : Xamsachilik an'anasi haqida gapiradi .
- 2-guruh : A.Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni haqida so'zlaydi
- 3-guruh : "Farhod va Shirin" dostoni haqida so'zlaydi .
- 4-guruh : "Layli va Majnun" dostoni haqida so'zlaydi .
- 5-guruh : "Sab'ai sayyor" dostoni haqida so'zlaydi .
- 6-guruh : "Saddi Iskandariy" dostoni haqida so'zlaydi .

Har bir guruhdan hamma o'quvchi qatnashishi shart .

Masalan : 1-guruhdan 1 o'quvchi "Xamsa" chilik an'anasini Ozarbayjonlik ulug' shoir Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan .

2-o'quvchi : U 28 yil mobaynida yaratgan dostonlarini jamlab "Panj

Ganj" ya'ni " Besh xazina" deb nomlaydi . U avvaldan niyat qilib besh doston yozmaydi . Sh tariqa "Xamsa" chilik an'anasi paydo bo'ladi .

3 - o‘quvchi : Nizomiy Ganjaviydan keyin Xusrav Dehlaviy o‘zining besh dostonidan iborat “Xamsa” sini yaratdi .

4 - o‘quvchi : Shunga ko‘ra har bir asar “Xamsa” deb atalmog‘i uchun :

- 1) Besh dostonidan tashkil topmog‘i ;
 - 2) 1 - doston , alabatta pand - nasihat ta’limiy - axloqiy bo‘lmog‘i
 - 3) 2 - doston Xusrav va Shirin munosabatlariga bag‘ishlanmog‘i
 - 4) 3 - doston Layli va Majnun muhabbatini mavzu qilib o‘lmog‘i
 - 5) 4 - doston shoh Bahrom va 5 - doston Iskandar haqida yozilmog‘i shart edi .
- 5 - o‘quvchi ;

Emas oson bu maydon ichra turmoq

Nizomiy panjasiga panja urmoq

Kerak sher oldida ham shu jangi

Agar sher o‘lmasa bora palangi

deb Nizomiydek nazm ichra maydonda turmoq Navoiyga oson emas edi .
Lekin u “Xamsa” yaratish bo‘yicha undan o‘zib ketdi .

2 - guruh

Alisher Navoiyning “Hayrat ul – abror” dostoni haqida gapiradi .

1- o‘quvchi : Xamsaning 1 dostoni “Hayrat ul – abror” (Yaxshi kishilarning hayratlanishi nomi bilan mashhur) .

2 - o‘quvchi : U falsafiy - axloqiy , ta’limiy asar . Aruzning sari bahrida yozilgan .

3 - o‘quvchi : Uning hajmi 3988 baytni o‘z ichiga olgan , 63 bob bo‘lib , 21 bobi muqaddima , 20 bobi maqolot , 20 bobi hikoyat , 2 bobi xotimadan iboart .

3 - guruh ;

“Farhod va Shirin” dostoni haqida ma’lumot beradi .

1 - o‘quvchi : Farhod va Shirin “Xamsa”ning 2 - dostoni bo‘lib , ishqiy sarguzasht dostonidir .

2 - o‘quvchi ; Hajmi 5782 bayt

4 - guruh

“Layli va Majnun”

1 - o‘quvchi : Navoiy bu dostonni “Xamsa” ning uchunchisi etib belgiladi .

2- o‘quvchi : Navoiyning bu asarida , ayniqsa , ruhiyat tasviriga alohida e‘tibor berilgan .

5 - guruh

“Sab‘ai sayyor”

1 - o‘quvchi : “Sab‘ai sayyor” ishqiy - sarguzasht qissa bo‘lib , yetti iqlim shahanshoi Bahrom taqdiri mavzusini yoritadi .

2 - o‘quvchi : Uning sevgilisi Dilorom o‘zining mustaqil fikriga ega to‘g‘riso‘z qiz va hokazo

6 - guruh

“Saddi Iskandariy”

1- o‘quvchi : “Xamsa” ning yakunlovchi dostoni Iskandarga bag‘ishlangan .

2- o‘quvchi : “Saddi Iskandariy” dostoni Navoiy “Xamsa” sidagi hajm jihatidan eng katta asardir .

3- reja bo‘yicha har bir guruh o‘quvchilari “Xamsa” dostonidagi o‘zlariga yoqqan qahramon haqida gapirishadi .

Masalan : Menga “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod timsoli juda yoqdi . Uning bilimliligi , boshlagan ishini oxiriga yetkazishi , ishqda vafodorligi menga yoqdi

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari :

1. O‘z sochlariga bog‘lab sahroda tashlab ketilgan qahramon qaysi asarda uchraydi ?

a) “Farhod va Shirin”da b) “Layli va Majnun”da

d) “Hayrat ul-Abror” da e) “Sabbai sayyor”da f) to‘g‘ri javob yo‘q

2. Komil inson tasviri qaysi qahramon orqali namoyon bo‘ladi ?

a) Moniy b) Boniy s) Farhod d) Bahrom e) Shirin


3. Agar bir qatla ko‘rdi har sabaqni

Yana ochmoq yo‘q erdi ul varaqni

a) “Hayrat ul abror” b) “Xusrav va Shirin” s) “Farhod va Shirin”


d) Xamsa dostonlariga mansub emas e) “Lison ut tayr” dostonidan

O‘quvchilar pog‘anama-pog‘ana yangi mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini yozadilar.
Shu orqali mavzuni tushunganliklarini bilib olamiz.




O'quvchilarga Venn diagrammasi chizilgan qog'ozlar tarqatiladi. Bunda ham guruhlar bilan ishlash mumkin. Har bir guruhga oltitadan diagramma chizilgan qog'oz tarqatiladi. Ushbu usulning sharti quyidagicha; Diagrammaning birinchi tomoniga ma'lum bir asarning o'ziga xos tarafi yoziladi, ikkinchi tomoniga esa keyingi ma'lum bir asarning birinchi asarga o'xshamagan, unga qarama qarshi bo'lgan o'ziga xos tarafi yoziladi. O'rtasiga esa ikkala asarning o'xshash jihatlari, qarama-qarshi bo'lmagan fikrlar yoziladi. Masalan, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlarini qiyoslash.

VENN DIAGRAMMASI



“KLASTER” metodi asosida fikrlaringizni bayon eting




Talabalarni bilimlarini mustahkamlash uchun **“O‘z o‘rniga qo‘y”** mashqi. Beshta doston ham alohida mana shu shaklda tayyorlanadi.


- 1 billoh — bu o‘rinda xalq**
- 2 biym — badbaxt boyqush**
- 3 quloq yolqishi — qo‘rquv**
- 4 bumi manhus— quloq qizishi**
- 5 oshufta — xudo haqqi**
- 6 xoma — so‘ng**
- 7 summa — umid, iltimos**
- 8 xayl — parishon**
- 9 tavaqqu — qalam**

IV.Darsni yakunlash: O‘quvchilardan yana bir bor tushunmagan savollari so‘raladi, so‘ng uyga vazifa qilib, “Xamsa” dostonlarini to‘liq shaklda o‘qib kelish aytiladi.

V.Rag'batlantirish: Darsda faol ishtirok etgan va etmagan talabalar rangli kartochkalar bilan baholanadi.



DARSDAN QANDAY KAYFIYAT BILAN KETYAPSIZ???
(BELGILANG)



Mavzu: Z. M Bobur lirikasi

Darsning maqsadlari:

Ta'limiy maqsadi: O'tilgan mavzuni takrorlash, lirika, g'azal, ruboiy haqida ma'lumot berish, ifodali o'qishga o'rgatish, og'zaki nutqini o'stirish, lug'at bilan ishlashga o'rgatish;

II. Rivojlantiruvchi maqsadi: Talabalarning ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, nutqiy tafakkurini oshirish, mumtoz she'riyatimiz namoyondalaridan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish;

III. Tarbiyaviy maqsadi: Talabalarning qalbida mumtoz adabiyotimiz vakillariga bo'lgan qiziqish va hurmatni oshirish, vatanni sevish va uni qadriga yetish va komil inson ruhida tarbiyalash, kasbga yo'naltirish.

Dars turi: bahs – munozara, musobaqa, savol- javob, suhbat, sharh

Dars uslubi: an'anaviy metod, ma'ruza metodi, faollashtirish, erkin fikr aytishga o'rgatish, xotirasini kuchaytirish, sharhlash, milliylik, audio-video,

Dars jihozi: darslik, badiiy asarlar, tarqatmali testlar, AKT,

Fanlararo aloqa: ona tili, tarix, tasviriy san'at

Darsning blokchizmasi

№	Darsning borishi	Vaqt
1.	Tashkiliy qism	10 daqiqa
2.	O'tilgan mavzuni takrorlash	15 daqiqa
3.	O'tilgan mavzuni yakunlash	10 daqiqa
4.	Yangi darsning bayoni	25 daqiqa
5.	O'tilgan mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa

6.	Guruhlar ishini yakunlash va baholash	5 daqiqa
7.	Uyga vazifa berish	5 daqiqa
	Jami:	80 daqiqa

Darsning shiori: Vaqtingni bekorga o‘tkazmagin hech,

Ilm olish uchun o‘qi erta-kech

DARSNING BORISHI

I Tashkiliy qism: a) salomlashish;

b) navbatchi va davomatni aniqlash;

d) madhiya kuylash;

e) she’riy daqiqalar o‘tkazish

Talabalarni ikki guruhga ajratiladi va musobaqa tarzida o‘tilgan mavzu mustahkamlanadi. Guruhlar shoir asarlari nomi bilan ataladi.

O‘qituvchi savoli : Nima uchun shunday nomladingiz va u qanday asar

O‘tilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarga beriladigan savollar:

1-savol: Bobur qachon va qayerda dunyoga kelgan?

2-savol: Shoirning ota-onalari haqida qisqacha ma'lumot bering.

3-savol: Bobur necha yoshida va nechanchi yilda taxtga o'tiradi.

4-savol: Bobur hayoti davomida qanday ishlarni amalga oshirdi.

5-savol: 1526-yil 21-dekabrda shoir hayotida qanday voqea yuz beradi?

6-savol: Bobur qachon vafot etgan va uning vasiyatiga binoan uning qayerga ko'chirilgan?

7-savol: Bobur farzandlari haqida ma'lumot bering. Ularning ismlarini sanab bering.

8-savol: Boburning qanday asarlarini bilasiz?

9-savol: Xo'ja Ahrorning qaysi asarini tarjima qiladi?

10-savol: "Boburnoma" qanday asar va qaysi davr voqealarini o'z ichiga oladi?

So'ng baholanadi? O'qituvchi o'tgan mavzuni yakunlaydi. Bobur haqida yaratilgan kinofilmlar, badiiy asarlar haqida ma'lumot beradi. O'qituvchi savol beradi.

O'qituvchi: Z. M. Bobur haqida kimlar o'zlarining samimiy tilaklarini bayon etishgan

Javoharlar'l Neru: "Bobur- dilbar shaxs Uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan".

N. I. Veselovskiy: "Bobur botirligining cheki bo'lmagan: uning butun hayoti jasorat namunlari bilan to'lib- toshib yotibdi"

Erskin: "Biz Osiyodagi hukmdorlar ichidan Bobur singari genial va talantli kishilarni kamdan – kam uchratamiz".

Eduard Xolden: "Bobur fe'li sajiyasiga ko'ra Trezorga qaraganda sevishga arzigulikdir"

Rajiv Gandhi: “Farg‘onalik mard, nozikdid Bobur ismli yigit gang tekisliklarimizgacha yetib kelgan, buyuk mo‘g‘illar sulolasi atalgan saltanatimizga asos solib, o‘zini hind deb bilgan edi”

Yangi darsning bayoni

Dastlab o‘quvchilarga lirika haqida ma‘lumot beriladi. Bobur o‘zbek va fors tillarida ijod etgan zullisonayn shoirdir. U o‘zbekcha she‘rlarini to‘plab, 1519 – yilda Qobulda, 1528-29 Yilda Hindistonda devonlar tuzgan. Bu ikki top‘lam o‘sha joylar nomi bilan “Qobul devoni”, “Hind devoni” deb ataladi. Qobul devoni topilgan emas. Mutaxassislarning fikricha, saqlanib qolgan she‘rlarining soni 400 dan ortiq. Shundan 119 tasi g‘azal, 231 tasi ruboiy. Shuningdek, shoir devonidan tuyuq, fard, masnaviy, qit‘a, muammo kabi janrlar ham o‘rin olgan. Bobur devonining katta qismi g‘azallardan iborat. G‘azallarning ma‘lum qismi hasbi hol xususiyatiga ega bo‘lib, shoir hayotining muayyan lavhasi bilan bog‘lanadi. Uning “Topmadim” radifli g‘azalini olaylik. Unda Samarqandday ulug‘ va muqaddas ota yurtini ikki marotaba qo‘lga kiritib, ikki marotaba qo‘ldan berishiztirobi, madad kutgan kishilarning loqayd va beparvoligi tug‘dirgan yo‘lg‘izlik hissi, sarsonlikda kechgan kunlar alami an‘naviy ishqiy mavzuga xos tafsillar orqali ifodalangan. Bobur g‘azallari mavzuga ko‘ra xilma-xildir. Unda hayotga bo‘lgan mehrt aks etgan jo‘shqin g‘azallar ham, afsus nadomat to‘la sh‘erlar ham bor. Shoir hoh dunyoning achchiq- chuchugini tatib ko‘rgan kishi sifatida falsafiy mushohada yuritadi, odamlarni har qanday holda yaxshilik qilishga chorlaydi, goh taqdirning ayovsiz zarbalariga chiday olmay, el-yurtdan bosh olib chiqib ketmoqchi bo‘ladi. Insonga xos quvonch ham, g‘am ham bu g‘azallarda bor. Shu va boshqa ma‘lumotlar aytilib darslikda berilgan she‘rlari tahlil qilinadi, sharhlanadi.



Bobur ruboiy janrida ham samarali ijod qildi. U tabiatan ijtimoiy – falsafiy bo‘lgan ruboiy janriga kundalik hayotiy mazmuni kiritdi. Uning

ruboiylari sarson – sargardon kechgan hayotining iqrornomalaridan taassurot qoldiradi. Hech bir yurt uning uchun Vatan bo‘lolmaydi.

Tole yo‘qi jonimga balolig‘ bo‘ldi,

Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi.

O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,

Yo rab netayin , ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Bobur she‘riyatini o‘qib bir narsaga amin bo‘lasiz: u hayotni sevadi, umrning har qanday daqiqasini g‘animat biladi. Shuning uchun har qanday og‘ir kunlarda ham yashashga intildi, izlanishdan to‘xtamadi, ijodda davom etdi. Shoirning hayotsevarligi, ayniqsa yoz fasli, do‘stlarninfn suhbatlari “Sendek menga bir yori jafokor topilmas” kabi g‘azallarida yaqqol aks etgan. Demak, shoir she‘rlari benihoya samimiy tuyg‘ular bilan yog‘rilgan.



Mustahkamlash:

Yangi mavzu yuzasidan savollar:

1. Bobur ko‘proq aysi janrda ijod qilgan?
2. Uning qanday g‘azal va ruboiylarini bilasiz?

XULOSA

Bugungi mustaqillik davrida respublikamiz iqtisodiy – siyosiy , ijtimoiy – madaniy sohalarida yuqori pog‘onalarga ko‘tarilib, jahon bozori iqtisodiyotiga, maorif jabhasida jahon standarti darajasiga dadil qadamlar bilan ilgarilab bormoqdaki, bu esa o‘z navbatida o‘qitishning yangi shakllari va metodlarini kashf qilish, tajriba orttirish vazifasini har biri o‘qituvchi oldiga ko‘ndalang qo‘ymoqda .

*“ Har bir dars – o‘qilmagan yangi bir badiiy asar, Dars tashkil qiluvchi o‘ziga xos san’atkordir.”*O‘quvchilik yillarimda ustozlarimning dars berish usullarini kuzatganimda, ularning ba’zilaridagi allaqanday xislatlar meni o‘ziga rom etsa, qay birlarini darslari o‘ta zerikarli onlarimga achinish hissi paydo bo‘lardi. O‘sha paytlarda buning sababini hozirgidek chuqur idrok eta olmasamda, bir narsani tushunardimki, o‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilsa va sevsa, unga bor vujudini baxsh eta olsa, o‘quvchilari uning darsini zo‘r hayajon va sog‘inish bilan kutadilar. Akademik litseylar adabiy ta‘lim jarayonini yo‘lga qo‘yishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan pedagogik vositalar bo‘lmish o‘quv dasturi, darsliklar hamda metodik qo‘llanmalar yaratishda mantiqiy izchillik, tizimlilik qat‘iy uzviylik bo‘lishini ta‘minlash bu bosqichda adabiyot o‘qitishning samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Akademik litsey adabiyot darslarida sharhlab o‘qishni qanday tashkil qilish kerak, uning turlari masalasini ishimizda oydinlashtirishga harakat qildik Ya. Avlaqulov “ Ona tili va adabiyot fani o‘zining qiziqarliligi, hayot haqiqatini yorqin ochib berishi, jasoratga undoshi, sehrli olami bilan o‘quvchilarni rom etishi va shuning uchun u bolalarning sevimli faniga aylanishi kerak “ – deya ta‘kidlar ekan, demak , adabiyot o‘qituvchisi o‘z fanining, kasbining fidoiysi bo‘lishi lozimdir . Xulosa qilib aytganda , akademik litsey adabiyot darslarida mumtoz adabiyot asarlarini sharhlab o‘rgatish o‘qituvchidan juda katta pedagogik mahorat va ijodiy izlanishni talab qiladi . Ishonamizki, hozir ham, kelgusida ham bo‘lajak o‘qituvchilar va tajribali o‘qituvchilar shunday yo‘lni tutib, ijodiy tajribalarida unumli foydalanadilar..Bitiruv malakaviy ishimizda asosan turli metodlardan foydalanib natijaga erishish-ni maqsad qildik.Bulardan

“Interfaol metodlar, muammoli ta’lim metodi, Sharhlash , Audio-video, 6x6x6, to’rtinchi ortiqcha ,Baliq skleti, Aqliy hujum ,Tarmoqlash, Venn diagrammasi” kabi mustaqil fikrlashga faollikka, izlanuvchanlikka ijodkorlikka yo‘llovchi ilg‘or ta’lim usullari vositasida tashkil etiladigan darslar orqali o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy tuyg‘ularni tarkib toptirish va yanada yuksaltirish mumkin. Bundan tashqari dars ishlanmalar va slaydlar yaratdik. Ularda nazariy bilimlarimizni, interfaol usullarni amaliyotga tatbiq etishga harakat qildik. Bu texnologiyalar mumtoz she’rlarni namunalarini sharhlashda, o‘rganishda, mavzuni o‘quvchilarga yetkazishda, tahlil qilishda ulardan o‘rinli foydalanish zarur va muhim ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot ishimiz natijasiga ko‘ra quyidagi tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq:

- 1.Ma’naviy-ma’rifiy ta’limda akademik litsey o‘quvchilarini tarbiyalashda milliy qadriyat turlaridan foydalanish;
- 2.Mumtoz she’r namunalarini shahlash asosida akademik litsey o‘quvchilariga moslashtirilgan dars ishlanmalari tuzish yaxshi natijalarni beradi.
3. Adabiyotimizni o‘rgatish orqali o‘quvchilarda milliy qadriyatlarning shakllantirishning turlari bu yoshdagi o‘smirlarning idrok qilish jarayonini mustahkamlaydi.
- 4.Mumtoz adabiyot namoyondalari tomonidan bizga qoldirgan boy me’rosini avaylab asrab, chuqur o‘rganib , uni zamon yutuqlari bilan ijodiy boyitib akademik litsey o‘quvchilarini tafakkuri, dunyoqarashini milliy qadriyatlar asosida shakllantirib, kundalik turmushlarida qo‘llashga o‘rgatish muhimdir.
- 5.Akademik litsey o‘quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda buyuk allomalarning ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi o‘g‘itlari, she’rlari pandnomalaridan foydalanib borilsa yaxshi natijalarga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akademik litseylarning ijtimoiy gumanitar fanlar va horijiy filologiya yoʻnalishidagi tarmoq talim standarti va chuqurlashtirilgan fanlar oʻquv dasturlari. T., 2005, 122-bet.
2. Umumiy oʻrta taʼlimning Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. - T.:Fan, 2010.
3. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Maʼnaviyat, 2008. 139-bet.
4. Б.Тўхлиев. Адабиёт ўқитиш методикаси. Тошкент, Алишер Навоий номидаги .Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010, 8-9-бетлар.
5. Valixoʻjaev B. Oʻzbek adabiyotshunosligi tarixi.Toshkent, 1993, 138-139-betlar.
6. Alisher Navoiy. Asarlar. 15-jildlik, 14-jild, T., Fan, 1967, 143-144-betlar
7. Alisher Navoiy. Asarlar, 14-jild, Toshkent, Fan, 179-bet.
8. Zahiriddin Muhammad Bobur. Muxtasar. Toshkent, fan, 1971, 25-bet.
9. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini oʻrganish. T., Oʻqituvchi, 1995.
- 10.Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent, Sharq, 1999, 131-bet.
- 11.Ҳаққулов И. Ким нимага таянади? — Т.: “Зарқалам”, 2006. 16-бет.
- 12.МаллаевН. Ўзбек адабиёти тарихи. —Т. “Ўқитувчи”, 1976, 8-бет.
- 13.Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсириҳилол. — Т. “Шарқ 2007-й., 562-бет.
- 14.Носиров О. Ўзбек адабиётида ғазал. — Т.: “Ўқитувчи”, 1972.
- 15.ИсҳоқовЁ. Ғазал. — Т.: “Фан”, 1978 й.
- 16.Адабий тур ва жанрлар. Лирика. — Т.: “Фан”, 1992, 193—194-бетлар.
- 17.Abu Nasr Farobiy. Sheʼr sanʼati. –Toshkent: Adabiyot va sanʼat, 1979. –186 b.

18. Ahmedov S. Adabiyot darslarida epik janrlarni o'rganish. Adabiyot o'qituvchilariga yordam. – T.: O'qituvchi, 1986, 92-b.
19. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 557 b.
20. Niyozmetova T. Adabiy ta'limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish.//Til va adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar.1-qism. T., 2008.
21. Yo'ldoshev Q. Adabiy saboqlar. Umumta'lim maktablarining 8-sinf "Adabiyot" darsligi uchun metodik qo'llanma. – T.: Sharq, 2004.
22. Zunnunov A. "Badiiy asar tahlili metodikasi" Toshkent: "O'qituvchi" 1983.
23. Zunnunov A., N.Xotamov., J.Esonov., A.Ibrohimov., "Adabiyot o'qitish metodikasi" Toshkent: "O'qituvchi" 1992.
24. Yo'ldoshev Q. , Madayev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: "O'qituvchi" 1994.
25. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent: "O'qituvchi" 1996.
26. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. Toshkent: "Tamaddun", 2010.
27. Tolipov. O'.O'quv – tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish. Toshkent: 2004.
28. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Nashrga tayyorlovchi R.Abdushukurov. Toshkent, 1992.
29. To'xliyev B., Sarimsoqov B. Adabiyot (akademik litseylar uchun o'quv dastur). – T.: O'qituvchi, 2000. – 288 b.
30. To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. "Adabiyot"(majmua). Akademik litseylarning ikkinchi bosqichi uchun darslik. – "BAYOZ", 2016.
31. To'xliyev B., Niyozmetova R. va b. "Til va adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari". Toshkent, 2011.
32. www.ziyouz.com

33. www.wikipedia.org